

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**MOHIDIL G‘OFUROVA
MOHICHEXRA USMONOVA**

**BOSHLANG‘ICH SINFI
O‘QUVCHILARI NUTQINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI
(SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA)**

(O‘quv qo‘llanma)

*(5111700: (Boshlang‘ich ta‘lim) yo‘nalishi bakalavr bosqichi talabalari
va boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilari uchun o‘quv qo‘llanma)*

**Россия
Москва - 2024**



Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirish usullari
(savod o'rgatish davrida.) Методическое пособие/ альманах -

г. Москва

Всероссийский информационно-образовательный портал «Магистр» 2024 - 74 с.

ISBN: 978-1-4461-6438-9

ISBN: 9781446164389

© Коллектив авторов., текст, 2024

© Методическое пособие 2024

© Всероссийский информационно-образовательный
портал «Магистр», 2024





KIRISH

Ma'lumki, ta'limning mazmuni o'quvchilarning har tamonlama kamol topishiga, chuqur bilimli, ma'naviyati yuksak, vatan ravnaqiga hissa qo'sha oladigan shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgandir. Rivojlangan davlatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. tendensiyasining intensivlashuvi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli bugungi avlodning bilimdon, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Bu o'rinda inson ruhiyati uchun to'laqonli, faol, barkamol shaxs sifatida shakllantirish samaradorligini yanada oshirishda psixologik- pedagogika ilmi va uning amaliyotda to'g'ri bo'lishi juda muhimdir. Kelajagi, ertangi kuni yorug', farovon va buyuk bo'lishini o'ylagan davlat, albatta barkamol avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi va bu ezgu yo'lda barcha chora tadbirlarni ko'radi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022 -yil 11 maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son, 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlarni to'g'risida" PQ-4884-sonli qarori, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risidagi" 577-son qarorini amalga tadbiq qiluvchi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom"ning ishlab chiqilishi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu haqda quyidagi fikrlarni bayon etganlar: "Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimiz kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani g'urur va iftixor bag'ishlaydi"¹ Bu g'ururni tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyosdir. O'quvchilarni maktab ostonasiga kelishlari bilan bu faoliyat boshlanadi, deyishimiz mumkin, chunki savod o'rgatish davridan boshlab o'quvchilar ta'lim-tarbiya birligi asosida o'qitiladi. " Boshlang'ich ta'lim- ta'lim

¹ Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent-O'zbekiston" -2016. 13-bet.



oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan"ligi O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonunining 9-moddasida belgilab qo'yilgan.

Savod o'rgatish davridanoq bolalarni xat-savodga o'rgatish, lug'atini boyitish, nutqini rivojlantirish bilan bir qatorda orqali boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishga ham zamin yaratiladi.

Ona tili ta'limi o'quvchilarning o'zbek adabiy tili me'yorlari darajasida og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, imlo va uslubiy jihatdan savodxon qilish, ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish kabi maqsadlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. O'quvchilarda yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish bir qadar murakkab jarayon bo'lib, maktab ta'limida muhim jihat hisoblanadi.

Yozma nutq o'quvchilarda savodxonlik, ijodiylik, fikrni aniq ifoda eta olish, qisqalik va tushunarliklik kabi asosiy asosiy sifatlarni shakllantirishga qaratiladi. Savodxonlikda so'z va tinish belgisini to'g'ri yozish tushunilsa, yozma nutqda so'zni ko'rish va ko'chirish, uning talaffuzi va eshitilishi orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlay olish nazarda tutiladi. Xat-savod o'rgatish ta'limning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'quvchilarga to'g'ri o'qish, chiroyli yozish hamda o'qiganlarini so'zlab berish o'rgatiladi. Nutqni gaplarga, gapni so'zlarga, so'zni bo'g'inlarga ajratish, tovushlarni eshitib va talaffuz qilib bir-biridan farqlash, so'zda tovushlarning birin-ketinligiga e'tibor berishni ham bilib olishlari ta'minlanadi.

O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish ishlari ham savod o'rgatish darslarining asosiy vazifalaridan biridir. O'quvchilar o'qituvchisining savollariga to'liq va aniq javob bera olishi; rasmga qarab bog'lanishli nutq tarzida hikoya tuzishi; o'yin va turli voqealarni gapirib berishga o'rgatib boriladi. O'quvchilar lug'atini boyitishga, yangi o'rganilgan har bir so'zning ma'nosini puxta o'zlashtirishlariga e'tibor beriladi.

Savodxonlikni tarkib toptirish ijodiy tafakkurni rivojlantirish bilan uyg'unlikda olib borilishi lozim. Maktab ona tili ta'limining bosh maqsadlarida biri ham o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirib borishdir.

O'quvchi og'zaki va yozma nutqning rivojlanganlik darajasi uning boshqalar bilan muloqotlarda namoyon bo'ladi. Demak, ona tili ta'limi jarayonida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish zamirida o'zaro muloqot jarayonidagi madaniy nutqi tarkib toptirish maqsadi ham e'tibordan chetda qolib ketmasligi lozim.



1-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

1.1. Kompetensiyaviy yondashuv – ta'lim sifat va samarasining omili

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishida umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish vazifalari belgilab berilgan. Bu ta'lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta'minlash, ularni o'zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ma'lumki, ona tili maktabda o'quvchining kamol topishida, fikrlash darajasining o'sishida, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilidan olib boriladigan barcha mashg'ulotlar tizimi shunday qurilishi lozimki, bu tizim o'quvchilarda ona tiliga muhabbat, o'z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o'stirishi zarur.

Respublikamiz ijtimoiy hayotidagi tub ijobiy o'zgarishlar boshlang'ich sinf ona tili ta'limi oldiga muhim jiddiy talablarni qo'yimoqda. Bolalarning fikrlash darajasini muntazam ravishda o'stirib borish, o'quvchilarning nutqiy va imloviy savodxonligini to'la ta'minlash ana shu talablar jumlasiga kiradi.

Davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan maxsus o'quv dasturining asosiy talablaridan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, bilish faolligini oshirishdir. Bularni amalga oshirish uchun o'quvchilarni til hodisalari haqida o'ylashga, fikrlashga, mulohaza, muhokama yuritishga, xulosa chiqarishga o'rgatadigan samarali metod va usullardan foydalanish talab etiladi.

Davlat ta'lim standartlarida Ona tili fani bo'yicha boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan malaka talablari belgilab berilgan. Bular nutqiy va lingvistik kompetensiyalarga ajratilgan va A1 va A1+ bosqichlariga bo'lingan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida quyidagi nutqiy kompetensiyalarga (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) ega bo'lishlari zarur: sodda matnlarni tinglab tushuna olish; og'zaki nutqda so'z va gaplar talaffuziga rioya qilish; 65-70 so'zdan iborat diktant yoza olish; tasvir asosida matn yarata olish, husnixatga amal qilish, imlo va tinish belgilariga rioya qilish; tabriknoma yoki xat yoza olish.

2020 – yilda qabul qilingan Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturida Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili ta'limi oldiga o'zlashtirilishi kerak bo'lgan lingvistik kompetensiyalar ham belgilab berilgan: “Ona tili nafaqat leksik va grammatik meyorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik meyorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili



darslarida o‘qib tushunishga alohida e‘tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi”²

Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarda nutq tovushlari farqlash, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga amal qilish, yangi so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash, yozma nutqda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay olishga oid bilim, malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Ona tili ta‘limi jarayoning asosiy maqsadi o‘quvchiga olingan bilimlardan muammoli vaziyatlarda o‘rinli foydalana olish malakasi va ko‘nikmasini singdirishdan iborat.

Taniqli tilshunos olim A.Nurmonovning ta‘kidlashicha, o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda ikki tamoyilga asoslanib ish ko‘riladi:

1. Lingvistik tamoyil. O‘quvchilar tilning sathlari – fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlar haqidagi bilim va ko‘nikmalarni to‘la o‘zlashtirishlari, tilning yaxlit bir sistemadan iborat bir butun ekanligini anglab yetishlari va nutqiy kompetensiya orqali buni yuzaga chiqara olishlari shart bo‘ladi

2. Psixologik tamoyil. Har bir o‘quvchi o‘zining faoliyati davomida boshqalar bilan bo‘lgan aloqa jarayonida nutqiy tajriba ma‘lumotlarini to‘plab boreadi va zarur hollarda undan unumli foydalanadi.

Demak, Umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturining asosiy maqsadi o‘quvchilarda notanish matnni ifodali o‘qiy olish, o‘zgaralar fikrini va va matn mazmunini anglash hamda uni og‘zaki ravishda bayon qilib berish, uni yozma ravishda izchil ifodalay bilish; til haqidagi bilim, malaka, ko‘nikmalar, ulardan turli vaziyatlarda o‘rinli foydalana olish mahoratiga ega bo‘lishni ta‘minlashdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘limning asosiy mohiyati shundan iboratki, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini o‘quv jarayonida egallash hamda uni hayoti davomida amaliy qo‘llay olishini nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilar maktab jarayonida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hayotga va ta‘limga tatbiq etilgan holda davlat tomonidan belgilab berilgan standartlarga asoslanadi. Bu standart maktab ta‘limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta‘lim resurslarini takomillashtirish, o‘quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta‘minlash, mustaqil ta‘limini amalga oshirish va o‘z-o‘zini baholash, zaruriy ma‘lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan ta‘lim sifati ko‘rsatkichlaridan biri kompetentlilik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi bo‘libgina qolmay, o‘quvchilarning egallagan bilimlarini aniq vaziyatlarda amaliy ko‘nikmas sifatida qo‘llay olishi bilan ahamiyatlidir.

² Umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2020.



Metodik adabiyotlardan ma'lumki, XX asr o'rtalaridan kirib kela boshlagan "kompetensiya" atamasi dastlab, olim N.Xomskiy tomonidan fanga ma'lum bo'lgan va u tildan foydalanish jarayonidagi bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida qo'llagan.³

O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.


Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabda ta'lim olib olishdek muhim tayanch kompetensiyani egallashlari lozim. Ona tili darslarida ular ijtimoiy munosabatlarning tilda aks etishini bilib olishlari, so'z va so'z shakllarining orfoepiya me'yorlariga javob beradigan talaffuzini (nutqiy kompetensiyaning asosiy unsurini) qo'lga kiritishlari, atrof olam bilan kengroq tanishish asosida hayot tajribalarini oshirishlari, jamoadagi o'z o'rnini anglay boshlashlari, muloqot istagida bo'lishlari, ko'p narsalarni bilishga ishtiyoq namoyon qilishlari kerak.⁴

O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim shaxsga yo'naltirilganda va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangandagina ta'lim taraqqiy etadi, rivojlanadi, shu bilan birga o'quvchilarni jamiyat talablari asosida yuksaltirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'qish, yozish va hisoblashga o'rgatish, tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash xislatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini amaliy qo'llay olishga o'rgatish hamda uni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

³ Sultonov Sh.E. Pedagog-kadr kompetensiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash sifatida. www.oriens.uz.

⁴ R.A. Yo'ldoshev, Z.Mirjalolova. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. Toshkent. 2018.





1.2. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishning mazmuni va vazifalari

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar qo'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasaliş usullari haqidagi (so'z yasalişiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tilining to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasalişiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar)ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi.

Beriladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar maktab dasturlari va davlat ta'lim standartida qayd etilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o'quvchilar so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozish imkoniyati yaratiladi. Morfologiya sohasidan ham so'zni ongli o'zlashtirish, uni to'g'ri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar tanlangan.



Boshlang'ich sinf o'quvchilari I sinfdan boshlab so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l)ni har xil saviyada o'rganadilar.

Sintaksisdan dasturga nutq birligi sifatida gap haqidagi, gapda so'zlarning bog'lanishi, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar haqidagi bilimlar kiritilgan. So'zning morfemik tarkibi yuzasidan har bir morfemaning muhim belgilarini, ularning ahamiyati va so'zda bir-biriga ta'sirini boshlang'ich sinf o'quvchilari tushunadigan va so'zlarni to'g'ri yozishda foydalanishlari uchun zarur bo'lgan hajmda ma'lumot berilgan.

Dasturda "Leksika" bo'limi alohida berilmagan, ammo o'quvchilar so'zlarning leksik-semantik guruhlari (sinonimlar, antonimlar) haqida, ularning leksik ma'nolari haqida so'z turkumlari va so'z tarkibini o'rganish jarayonida ma'lumot oladilar.

Boshlang'ich sinflar ona tili kursi 1-4-sinflarda tilning hamma tomonlari o'zaro bog'liq holda o'rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfdan fonetika, leksika, grammatika va so'z yasalishi haqida elementar bilim beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan bir butun hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Tilni o'rganishga bunday yondashish ta'lim jaryonini o'quvchilar nutqini o'stirish vazifasini hal etishga yo'naltirish imkonini beradi.

Dasturning "Grammatika, imlo va nutq o'stirish" bo'limi har bir sinfdan quyidagicha qismlarni o'z ichiga oladi: "Tovushlar va harflar", "So'z", "Gap", "Bog'lanishli nutq". Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to'rt sinfdan o'rganiladi. Har bir sinfdan yetakchi mavzular ajratiladi. 1-sinfdan fonetika va grafikaga oid mavzularni o'rganishga katta o'rin beriladi, chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallaydilar. 3-sinfdan so'zning morfemik tarkibi va gapni o'rganish muhim hisoblanadi. So'z yasalishiga doir bilimlar asosida o'quvchilarda so'zning leksik ma'nosiga, undan nutqda foydalanishga ongli munosabat o'sadi. 4-sinfdan so'z turkumlarini o'rganish birinchi o'ringa qo'yiladi (morfologik bilim chuqurlashtiriladi, otlarning egalik va kelishik qo'shimchalarini, fe'llarning tuslovchi qo'shimchalarini to'g'ri yozish malakalari shakllantiriladi).

Bog'lanishli nutq ustida to'rt yil davomida grammatik va orfografik materiallarni o'rganish bilan bog'liq holda reja asosida ish olib boriladi.

Ona tili darslarida til hodisalari ma'nosi (semantikasi), qurilishi, vazifasi jihatidan o'rganiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo'ydi. Barcha sohalardagi kabi ta'lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang'ich ta'lim darsliklari va metodik qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o'tamoqda.



Boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta'lim mazmunini aniq belgilab olishni, o'qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Davlat ta'lim standartida ta'kidlanganidek, "Boshlang'ich ta'lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo'yiladigan talab" da ta'lim sohalari bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi mazmuni ta'lim mazkur bosqichiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib belgilanadi.



1.3. Nutq – o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishdagi muhim vosita

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘stirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo‘naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina, rivojlanadi. Tushuncha so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, u til vositasi bo‘lgan so‘zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so‘z (so‘z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo‘ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi, til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi.

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo‘lishini ta‘minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug‘at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o‘stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o‘rganishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Nutqdan o‘quvchi fikriy rivojining asosiy o‘lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O‘quvchining barcha o‘quv predmetlaridan materialni o‘zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o‘quvchi o‘z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo‘lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi, fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o‘sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish boshqa o‘quv predmetlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog‘lanadi. Ona tili darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar, ular kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari haqida to‘g‘ri bayon qilishni o‘rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatadi.

O‘qish darsi va u bilan bog‘liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o‘quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o‘stirishga keng imkoniyat mavjud. She‘r, maqollarni o‘qish, o‘qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada bo‘lish, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish



vaqtida ko‘rganlarini hikoya qilish kabilar o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish vositalaridir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o‘stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o‘rganish va o‘qish darslarida o‘quvchilar bajaradigan so‘z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Grammatika va to‘g‘ri yozuv darslarida tilni maxsus o‘rganish bilan bolalar alohida tovush, bo‘g‘in, so‘z va gaplarni eshitishga va aytishga o‘rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko‘pgina so‘zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo‘g‘in, so‘z, o‘zak, qo‘shimcha, so‘z turkumlari (ot, sifat, fe‘l, son, olmosh), bog‘lovchi, gap, gap bo‘lagi, darak gap, so‘roq gap, undov gap singari juda ko‘p yangi atamalarni bilib oladilar.

Boshlang‘ich sinflardagi boshqa darslarda ham o‘quvchilar nutqi xilma-xil so‘zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko‘rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Maktabda o‘qitish elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan boshlanadi. “Alifbe”ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o‘quvchilar o‘qish va yozishga o‘rgatiladi, ya‘ni o‘qish va yozish ko‘nikmasini egallaydilar.

Savod o‘rgatish davrida o‘qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o‘qish va yozish ko‘nikmasi deyiladi. Bu ko‘nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko‘nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko‘nikmaga aylanmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o‘quvchi harflarni tanib, ularni o‘qiy olmasligi mumkin. Yozish ko‘nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya‘ni yozish jarayonida partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo‘yish kabilar ham o‘rgatiladi.

O‘qish va yozish ko‘nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o‘quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o‘ylab o‘tirmay, so‘z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o‘qish va yozish malakasi harakatning o‘ylab o‘tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka, o‘qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O‘qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta‘minlaydi. Shuning uchun ham o‘qishga o‘rgatish bilan yozuvga o‘rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. Shunday ekan, savod o‘rgatish jarayonida bola juda ko‘p o‘qishi va yozishi zarur.

O‘zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya‘ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O‘qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi.



O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni sintezlab o'qishga o'rgatishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodiga asosan olib boriladi. So'z bo'g'inga bo'linadi, bo'g'indan kerakli o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganiladigan harf bilan sintezlanadi, shu asosda harf va butun o'qish jarayoni o'zlashtiriladi. Bunda o'zbek tili grafik tizimi, tovushlarni yozuvda belgilash xususiyatlari hisobga olinadi. Savod o'rgatishda o'zbek tili grafik tizimining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.⁵

O'qishning dastlabki bosqichida orfografik o'qishdan foydalaniladi, asta-sekin orfoepik o'qish ko'nikmalari shakllantiriladi. Talaffuzi yozilishiga mos kelmaydigan tovushlar ishtirok etgan so'zlar oldin orfografik, so'ngra orfoepik o'qib beriladi va ularning o'qilishi bilan yozilishi taqqoslanadi. O'quvchilar muayyan darajada tushunchaga ega bo'lganlaridan so'ng orfoepik o'qish mashq qilinadi.

O'qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi.

Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun rasmlarni ko'z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, undan bo'g'inni aytishni talab qiladi. O'quvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo'shib bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilguncha, o'qish jarayoni sustlashadi.

2. Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, harfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishiga to'g'ri keladi. O'quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunligicha idrok eta boshlaydi.⁶

O'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkuri va nutqini o'stirishga katta e'tibor berish kerak.

Fonematik eshitish imloviy malakani hosil qilishning muhim shartidir. Shu bois savod o'rgatish davrida eshitish idrokini o'stirish uchun ham maxsus xilma-xil mashqlar o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Yozuv jarayonida o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri qo'yishni, harfni yozishda yozuv chiziqlari, ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga qanday ulash, qatorga sig'ish-sig'masligini mo'ljallashi lozim.

Yozuv jarayonida o'quvchi ruchkani qog'oz ustida sekin, ishonchsizlik bilan qimirlatadi, bir harfni yozib to'xtaydi va namuna bilan solishtiradi, ba'zan chiziqdan chiqib ketadi, noto'g'rilarini bo'yab, to'g'rileydi. Bu davrda

⁵Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi". 1996, 4-bet.

⁶Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi". 1996, 27-bet.



boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlariga bo'lgan ishonchlari kam bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarga yordam berishi, ularni qo'llab-quvvatlashi lozim bo'ladi.



1.4. Savod o‘rgatish davrida yangi pedagogik texnologiyalar foydalanish

Dars jarayoni o‘qituvchi - o‘quvchi munosabatlaridan iborat bo‘lib, ta’lim-tarbiyani turli usul va vositalar bilan yetkazish jarayonidir.

Zamonaviy dars qanday bo‘lishi kerakligi xususida ko‘p fikrlar bor. Zamonaviy darsga hozirgi kunda quyidagi talablar qo‘yilgan:

- o‘quv va maqsadlarning aniq yo‘lga qo‘yilishi;
- tarbiyaviy maqsadlar mazmuni va uslublarini zamonaviy fan va texnika darajasiga muvofiqlashtirish, fanning asosiy qoidalarini izohlash yo‘li bilan ochib berish, fan oldida turgan yangi muammolarni, uning istiqbolini yaratish;
- o‘quvchilarning bilim faolligini rivojlantirish, bilimlarini mustahkamlash va ularni mustaqil o‘rganish usullarini topish;
- ta’lim-tarbiya tamoyillarini uzviy olib borish, yangi ta’lim berishda amaliy yondashuvga ega bo‘lishga erishishda, tanlangan kasb sohasida mehnat qilishga tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat ⁷.

Noan’anaviy dars sinfda yoki sinfdan tashqari o‘tkazilishi, ko‘proq umumlashtirishni, takrorlash, mustahkamlash va mashg‘ulotlardan iborat bo‘lishi mumkin. Noan’anaviy dars, noan’anaviy metod va noan’anaviy usullar ona tili ta’limini yuzaga chiqaruvchi mavjud shakl bo‘lib, u darsga qo‘yiladigan talablardan farqli holatda tashkil qilinadigan, ta’lim berish shakllaridir.

Noan’anaviy dars ikki xil ko‘rinishda bo‘lib, birinchi sinfda ikkinchisi sinfdan tashqarida o‘tkazilishi mumkin. Maktablarda noan’anaviy dars shakllaridan foydalanish, darsning ma’lum qismi, ya’ni bosqichlarini noan’anaviy tarzda o‘tish masalalari darsda muammoli vaziyat, munozarali holat keltirib chiqaradi, seminar-dars, muzokara-dars, musobaqa-dars, viktorina-dars, sayohat-dars kabi shakllardan foydalanish ta’limni takomillashtirish, o‘quvchilar bilimining samaradorligini oshirishdan iborat.

Noan’anaviy dars va usullarning qo‘llanishi ko‘r-ko‘rona, shaklbozlik uchun bo‘lmasligi kerak, isbotlangan tarzda olib borishi samaradorligina emas, balki zararli holdir. Negaki, noan’anaviy tasdiqlangan rivojlantirilgan noan’anaviylikdan tubdan farq qiladi, uning samarasini o‘qituvchi avvaldan ko‘z oldiga keltirishni, shunga ko‘ra uni tashkil qilishni maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Noan’anaviy ta’limdan ko‘zda tutilgan maqsad, o‘quvchilarga faqat bilim, ko‘nikma, malakalar berishdan iborat bo‘lmasdan, balki o‘quvchilarni tabiiy sharoitga yaqinlashtirishdan iboratdir. Yangi darsda vujudga keladigan muammoli vaziyatlarni o‘zlashtirishda mavjud bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hal qilishiga o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Shundagina o‘quvchi darsda faol ishtirok etuvchi sub’ektga aylanishi, erkin fikrlay olishi va o‘z fikrini aytishi va uni himoya qila olishi, tashabbuskor, mustaqil bo‘la olishi

⁷ G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. Toshkent. –Tafakkur, 2011. 31-bet



mumkin. noan'anaviy ta'limning seminar-muammo, munozara, bahs, savol-javob usullarida o'quvchi sub'yektga aylanishi, erkin fikrlay olish va fikrini aytishi va uni himoya qila olishi, tashabbuskor, mustaqil bo'la olishi mumkin. Noan'anaviy ta'limning seminar-muammo, munozara, baxs, savol-javob usullarida o'quvchi sub'yekti yetakchi sanaladi. Umuman olganda boshlang'ich ta'limda o'quvchi darsda faol ishtirok etadi va bilim oluvchi, o'z bilimini namoyish etuvchi va hatto bilim beruvchi bo'lishi mumkin.

Noan'anaviy ta'lim darsini tashkil etish va o'tishga ana'naviy usullardan farqlanuvchi holatni bildiradi va u noan'anaviy yo'llarni o'z ichiga oladi.

Noan'anaviy usullardan biri piktogramma bo'lib, bu rasmga qarab shartli belgilar asosida gap va hikoya tuzish demakdir. Mazkur usul bolalarning lug'at boyligini oshirish va xotiralarini rivojlantirishga yordam beradi. Unda ta'lim maqsadlari:

- davlat ta'lim talablariga mos kelishi;
- bolaning yosh xususiyatini inobatga olishi;
- berilayotgan bilimlar kundalik hayot bilan uyg'unlashgan bo'lishi;
- ta'lim bilan tarbiyaning chambarchasligi;
- boshqa ta'lim yo'nalishlari bilan uyg'unligi;
- faoliyatni o'zi tanlashi, o'zini-o'zi baholashi ⁸.

Bu usulda ish yuritishda ta'lim jarayoni bola xohishidan kelib chiqishi talab etiladi. Shunday ekan, bola qiziqishini inobatga olish, mavjud bilim, malaka va ko'nikmani rivojlantirish o'rinli bo'ladi. Shuningdek, avvalo u ko'rgazmali-didaktik, ta'limiy tamoyillarga asoslanishi shart.

Har bir ta'lim mashg'uloti o'tkazilganda guruhlarga ajratilgan holda, tashkil etilishini nazarda tutish zarur. Unda «Men bilaman», «Bilishni xohlayman», «Bilishni istayman» kabi shaxsiy xususiyat va imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanishiga e'tibor berilishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni tashkil etishda ta'lim samaradorligiga erishish uchun noan'anaviy usullarni qo'llash, uni bola shaxsining kamolotiga, nutq va tafakkurini rivojlantirishga qaratish kerak.

O'quvchilarning faollik darajasini oshirishda, dars jarayonida qo'llanadigan metodlar, turli xil o'yinlar, «Topirlar bellashuvi» va boshqalar ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yuqoridagi firklarga asoslangan holda, darslik materiallariga qo'shimcha vositalar: magnit tasmalar, o'quvchilar uchun nashr etilgan lug'atlar, chop etilayotgan jurnallar va hokazo metodik manba vazifasini o'taydi.

Ona tili darslarida o'rganilgan mavzularni takrorlash uni xotirada tiklash, bayon qilingan yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash yoki ularni puxta o'rganish jarayonida izlanishga asoslangan metodlardan foydalanish lozim. O'qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlar o'quvchi uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega

⁸ Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2003.18-bet.



bo'lishi shart. O'quvchi o'z o'qituvchisi orqali fanni o'zlashtiradi, qiziqish paydo bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi sehrli so'zlar sohibi bo'lmog'i lozim. Fan bilan bola o'rtasida o'qituvchi ko'prikdir.

Darsda yangi pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida mahorat bilan qo'llash o'quv mashg'uloti maqsadiga erishishni kafolatlaydi. Ta'kidlash joizki, ayrim hollarda bir sharoitda ijobiy natija bergan texnologiya boshqa bir sharoitda kutilgan samarani bermasligi ham mumkin.

Zero, muallim qanday pedagogik texnologiyani qo'llamasin, bunda o'rnatiladigan munosabatning to'g'ri yo'naltirilgani katta ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki hech qanday texnologiya jonli, hissiyotlarga to'la insoniy munosabatlarning o'rnini bosa olmaydi.

Ayniqsa, o'qish darslarida bu jarayon o'zgacha ma'no kasb etadi. O'qish darslari boshqa fanlardan farqli ravishda inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, tafakkuri, ma'naviy dunyosini boyituvchi muhim vositalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya shaxsga ta'sir ko'rsatish san'ati ma'nosini anglatar ekan, adabiyotning vazifalaridan biri ham shu. Shu bois ham, o'quvchi-darsning ijodkori. U zinhor tayyor texnologiyalarning oddiy ijrochisiga aylanib qolmasligi, aksincha, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'z yo'lini izlab topishi lozim.

Shunday holatlar ham bo'ladiki, dars jarayonida ko'plab o'rinli-o'rinsiz usul va metodlar qo'llaniladi. Natijada, asar badiiyati, jozibasi xira tortib qoladi, o'quvchiga ta'sir kuchi kamayadi. O'qish darslarida so'z sehriga tayanish lozim, foydalanadigan usullar umumiy maqsadga omuxta bo'lib, singib ketsagina uni qo'llash yaxshi samara berishi mumkin.

O'qituvchining ramzlar, ishoralar, sha'ma, qochirmalar, istioralardan o'rinli foydalana olishi, nutq ohangiga, so'z jozibasiga e'tibor berishi va ifodali o'qish san'atini egallaganligi, mashg'ulotlarni ta'sirchan, qiziqarli tarzda tashkil etishi katta mahoratni talab etadi.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni amaliy faoliyatga yo'naltirishi, obrazga kirishiga tayyorlashi va savollar qo'ya olishi, o'z fikrini erkin ifodalashi, bahs-munozara yuritish madaniyatini egallashlariga sharoit yaratishi kerak. O'qituvchi o'quvchini o'zi bilan teng ishtirokchi sifatida ko'rishi, fikrlarini hurmat qilishi, eshitishi, ular bilan xisoblashi zarur.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning yana biri mashg'ulotlarni muammoli vaziyatda yaratish orqali tashkil etishdir. Muammoli ta'lim o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy fikrlash salohiyatlarini o'stirishdan tashqari, ularni yangi bilim va malakalarni egakllashga yo'naltiradi. Muammoli ta'lim muammoli vaziyat yaratish orqali amalga oshiriladi. Bu, o'qituvchida katta mehnat talab etadi, chunki dasturdagi har qaysi o'quv materiali ham muammoli vaziyat hosil qilish uchun asos bo'la olmasligi mumkin.

O'quvchilar qo'yilgan muammo bilan o'zlari o'zlashtirgan bilimlarini qiyoslab, mantiqdan mushohada yuritishadi. Qahramonlarning ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlash uchun asar matniga murojaat qilishadi.



Bunday muammoli vaziyat o'quvchini asar matniga, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrga diqqat-e'tibor bilan qarashga o'rgatadi. Bunday bahs-munozaralar o'quvchilarni asar matnini to'liq va chuqur o'rganishga yo'naltiradi. Muammoli ta'limning boshqa o'qitish usullaridan farqi shundaki, unda o'quvchi tafakkurida aqliy qo'zg'alishlar uyg'otiladi. O'quvchi muammoni hal etish uchun bilimi yetishmayotganini anglaydi. Bunday vaziyat o'quvchini bilim olishga, izlanishga, o'sha haqiqatning tagiga yetish uchun faol harakatga undaydi.

So'nggi paytlarda ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning interfaol usuli keng qo'llanilmoqda. Mazkur usulning muhim jihati shundaki, u hatto, eng sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham harakatlantiradi, o'rganganlari yuzasidan tanqidiy fikr yuritishga, tahlil qilishga, xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Savod o'rgatish davrida quyidagi o'yinlardan foydalanish mumkin: „Zanjir“, „Noto'g'ri jumla“, „Bo'lishi mumkin emas“, „Tez aytish“, „Topishmoqlar“, „Aytishuvlar“ va shu kabi og'zaki nutq bilan bog'liq o'yinlar kiradi. Bunday o'yinlar diqqatni, xotirani rivojlantiradi, o'quvchilarni fikrlarini to'plashga, tez fikrlashga, bog'lanishli nutqqa, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

Ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, Vatanimiz istiqboli yolida faol xizmat qila oladigan, ma'naviy yetuk, savodli va madaniyatli kishilarni yetishtirib chiqarishdir. Boshlang'ich ta'lim umumiy ta'limning poydevori, tayanch nuqtasi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'rganilgan bilimlar ta'limning keyingi bosqichi uchun asos bo'ladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limiga alohida e'tibor qaratmoq zarur.

Boshlang'ich sinfda ona tili darslari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish bilan bir qatorda ularning aqliy qobiliyatlarini o'stirishga, mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatishga katta e'tibor berish kerak. Zero, Respublikamiz istiqboli uchun ham mustaqil fikrlashga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon kadrlar nihoyatda zarur. Bunday kadrlarni tayyorlashning poydevori boshlang'ich sinfdanoq tayyorlanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim mazmuni va shakllarini yangilashga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Ta'lim jarayoniga o'quvchi faqat ob'yekt emas, balki sub'yekt bo'lib qatnashishi zarur.

O'quvchilarning ta'lim jarayoni sub'yektiga aylanishlari uchun ularning yosh, psixologik va o'zlashtirish xususiyatlarini e'tiborga olmoq muhim ahamiyatga ega. Chunki bolaning yosh va bilish imkoniyatlari hisobga olinmay berilgan ta'lim samarali bo'lmaydi. Qolaversa, birinchi sinfdan boshlab nazariy qoidalarni o'rgatish ham bolaning o'zlashtirishiga qiyinlik qiladi va o'quvchi ta'lim jarayoni sub'yektiga aylanmaydi, balki o'rgatilganlarning ma'nosiga tushunmay yodlashga kirishadi.

Birinchi sinf o'quvchilariga ona tili ta'limida bolalarning maktabgacha yoshdagi faoliyatlariga asoslanish lozim. Bolaning maktabgacha yoshdagi faoliyati asosan o'yin bilan bog'liq. Maktabga kelishi bilan aqliy faoliyatga kirishadi. U maktab ta'limiga tezroq kirishishi uchun aniq, hayotiy voqea-hodisalar asosida bilim berish, ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritish va shu orqali o'qish motivlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar turli didaktik o'yinlarga qatnashish orqali bilimlarni egallaydilar va ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylanadilar.



Bizning fikrimizcha, 1- sinfda ona tili ta'limi ko'proq amaliy ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmog'i lozim. Bola unli va undosh tovushlar, ularning xususiyatlari, bogin, bogin ko'chirish qoidalari, so'z ma'nosi, nutq va gap kabi grammatik tushunchalarni amaliy o'rganadilar. Amaliy ravishda o'rganilgan bilimlar nazariy tushunchalarni o'zlashtirishni osonlashtiradi, o'quvchining keyingi yillarda ona tilidan bilimlarni o'zlashtirishi uchun zamin hozirlanadi. Asosiy e'tibor o'quvchilarning to'g'ri o'qish va yozish ko'nikmalarini egallashlariga, og'zaki va yozma nutqi, lug'at boyligini o'stirishga qaratiladi. Shuningdek, o'quvchi savodxonligini oshirish, uning dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga e'tibor qaratish muhim vazifa.

Boshlang'ich sinflarda turli interfaol o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi. Masalan, unli tovushlarning xususiyatlarini organishga doir misol o'quvchilarni unli tovushlar bilan ishlash orqali uning xususiyatlarini organishlariga yordamlashadi.

Oquvchi so'zlarni yasash mashqini bajarayotganda unli tovushning talaffuzi va bogin hosil qilishi, bo'g'indagi, so'zdagi o'rni masalalariga doir savollar berib borilsa, o'quvchilar unli tovushlar haqida kengroq ma'lumotga ega boladilar. Bunday mashqlar o'quvchilarning erkin ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi, ta'lim jarayoniga faol qatnashishga yonaltiradi.

Shuningdek, ona tili ta'limi ona tili va o'qish darslaridan iboratligini hisobga olib, bu darslarni integrallashtiri borilishi ham yaxshi samara beradi. Integrallashtirgan darslar bilimlarning yaxlit o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'quvchi tafakkurini o'stiradi, mustaqil, ijodiy fikrlashga orgatadi

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quv sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



2- BOB. SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA SO‘Z VA GAP USTIDA ISHLASH - ASOSIY ISH TURI SIFATIDA

2.1. Savod o‘rgatish jarayoni

Analitik-sintetik tovush metodining an’anaviy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Savod o‘rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko‘ra ta’limiy va o‘stiruvchi xarakterda bo‘ladi, nutqiy mashqlar orqali aqliy o‘shini ta’minlaydi, o‘qishning ongli bo‘lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan ikki davrga bo‘linadi. Bunda yozuvga o‘rgatish o‘qishga o‘rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazardan quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

a) savod o‘rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;

b) o‘qish birligi sifatida bo‘g‘in olinadi, bo‘g‘in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.⁹

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonida bo‘lgan tamoyillari quyidagilardir:

1. Ta’lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan: savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga differentsial va individual yondashish (bu bolaning umumiy rivojlanishi hamda o‘qish va yozishga tayyorligiga bog‘liq).

2. O‘qitishning istiqboli nuqtai nazaridan: grammatika, so‘z yasalishi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish.

3. Psixolingvistik nuqtai nazaridan: tovush va harfni o‘qitishning qulay usulini izlash, tovush va harflarning mosligini, osonligini, ta’limning tarbiyaviy va o‘stiruvchi xarakterini hisobga olish.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga tarbiya ham berib boriladi. Tarbiyalash didaktikaning muhim tamoyillaridandir. Maktabda axloqiy tarbiya beriladi, ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi.

“Alifbe” sahifalarida do‘stlik, baynalmilal munosabat, bolalar mehnati, tabiat, kattalar mehnati, bolalar o‘yinlari, oila, maktab hayotiga oid rasmlar berilgan, turli mavzularda matnlar keltirilgan.

Savod o‘rgatishni to‘g‘ri tashkil etish uchun bolalarning unga nutqiy tayyorgarligini maxsus o‘rganish talab etiladi. Maxsus o‘rganish avgust oyida, hatto undan oldin – bahordan boshlanadi. Bunda 1-sinfga keladigan o‘quvchining oilasiga yoki bolalar bog‘chasiga boriladi, suhbat o‘tkaziladi, bolalarning umumiy bilim saviyasi aniqlanadi.

⁹K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2009, 17-bet.



Tanishish natijasini hisobga olish va nutqiy tayyorgarlikni o'rganish uchun quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi:

1. O'qish ko'nikmasini aniqlash.
 - a) so'zni sidirg'a o'qiydi;
 - b) bo'g'inlab o'qiydi.
2. Yozuv ko'nikmasi.
 - a) hamma harfni yozishni biladi, so'z yozadi (bosma yoki yozma);
 - b) ayrim harflarigina yozishni biladi (bosma yoki yozma).
3. Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi.
 - a) so'zni bo'g'inlarga bo'ladi;
 - b) so'z yoki bo'g'indagi tovushni ajratadi.
4. Og'zaki bog'lanishli nutqi. She'rni yoddan o'qish.
 - a) 3 ta yoki undan ortiq she'rni biladi, uni zavqlanib aytadi;
 - b) 1-2 ta she'rni biladi, aytishga uyaladi.
5. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Ertak aytish.
 - a) bir yoki bir nechta ertakni biladi va aytib bera oladi;
 - b) ertakni biladi va uni aytishga harakat qiladi, lekin ayta olmaydi.
6. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Fikr bayon qilish ("Rasmda nimalar ko'rayotganingni aytib ber").
 - a) 20 so'zdan ortiq bog'lanishli hikoya, bir necha gap tuza oladi;
 - b) 10 tadan 20 tagacha so'z, bir necha gap tuza oladi.¹⁰

Shuningdek, bu jarayonda bola nutqining sintaktik qurilishi ham, foydalanadigan so'zlar doirasi ham o'rganiladi, to'plangan materiallar ikki variantda yoziladi.

Ma'lumki, o'quvchilar 1-sinfga har xil tayyorgarlik bilan keladi. O'quv materiallari 1-sinf o'quvchilari saviyasiga mos, izchil ravishda beriladi. Shunga qaramay, har xil tayyorgarlik bilan kelgan o'quvchilarning o'zlashtirishlari turlicha bo'ladi.

O'qituvchi sinfda frontal ishlash jarayonida 3 guruhdagi o'quvchilar bilan parallel ish olib boradi. 3 guruh uchun ham o'quv materiali "Alifbe" hisoblanadi, unga qo'shimcha tarzda tarqatma materiallardan, jadvallardan, mustaqil ishlardan foydalanish mumkin.

Analitik-sintetik (tahlil-tarkib) tovush metodida savod o'rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo'linadi:

- a) alifbogacha tayyorgarlik davri (2 hafta);
- b) alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi).

Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o'quvchilarni maktab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o'quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o'stirishga oid mashqlar o'tkazib, fonematik eshitishni o'stirishdan iboratdir.

Alifbogacha tayyorgarlik davri, o'z navbatida, quyidagi 2 bosqichga bo'linadi:

¹⁰K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi". 2009, 19-bet.



1. Harf o'rganilmaydigan bosqich (1 hafta).
2. Unli tovush va harf o'rganiladigan bosqich (1 hafta).

Tayanch so'zlar asosida gap tuzdirish, "Alifbe" sahifalaridagi so'zlarning talaffuzi, o'qilishi va ma'nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi (Bu tarzda ishlar har bir darsda mavzularga bog'liq ravishda izchil davom ettirib boriladi).

Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilar yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtirilib, harf elementlarini yozishga o'rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash, o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish, chamalab yozish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi.

Shuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga o'rgatish ko'zda tutiladi. Ushbu bosqichdanoq tovush va harf o'rtasidagi chegaraga qat'iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqidagi ma'lumotlar kitob ochtirilmay beriladi.

Alifbo davri. Bu davr 31 dekabrgacha davom etib, unda o'quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush-harflar bilan tanishtiriladi.

Bu davrda o'quvchilarning tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan bo'g'in tuzish va o'qish, bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalaniladi. O'rganilganlar takrorlanib, harf birikmalari ng, sh, ch, 2 tovushni ifodalaydigan j, tutuq belgisi (') va jo'ja, jurnal, jirafa, tong, so'ng, bodring, choynak, shudring va shu kabi so'zlarni o'qishga o'rgatiladigan bosqich ham ayni shu davrda o'rgatiladi. Shuningdek, fonetik ishlar sohasida jarangli va jarangsiz undoshlarni taqqoslashga, ularning so'z ma'nosini farqlashdagi faoliyatini aniqlashga oid mashqlar o'tkaziladi (ziyrak-siyrak, dil-til kabi).

Asosiy davrning oxirlarida jarangsiz jufti talaffuz qilinadigan undoshli so'zlar: ko'rib (ko'rip), qaytdik (qayttik), aytib (aytip), ketayotib (ketayotip), tortib (tortip), terib (terip), olib (olip), obod (obot), borishdi (borishti) kabi so'zlarning imlosi o'rgatiladi.

Yuqoridagi kabi so'zlarni o'qish bilan bo'g'inlab o'qish malakasi takomillashadi: o'quvchilar talaffuzi va yozilishida farqlanadigan so'zlarni ham to'g'ri o'qishga o'rganadilar.



2.2. Tovush ustida ishlash jarayoni davomida o'quvchilar nutqini rivojlantirish

Tovush – savod o'rgatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Savod o'rgatish davrida so'z va bo'g'inlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulyatsiyasini analiz qilish mashqlari o'tkaziladi, diktsiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi.

I. Analiz mashqlari.

1. Nutq (gap)dan so'zni ajratish, so'zni aniq talaffuz qilish, bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarni aniq talaffuz qilish, urg'uli bo'g'inni ajratish va uni boshqa bo'g'inlardan farqlab, kuchli talaffuz qilib o'qish, maxsus tovushni ajratgan holda so'zni bo'g'inlab o'qish (aaaa-na, noon, iin, sssa-na, ki-yyyik, iiish).

2. Darsda o'rganiladigan yangi tovushni ajratish. Bunday tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor. Bu jarayonda tovush emas, harf asos qilib olinadi. O'quvchilar o'rganilgan harflar ichidan notanishini topadilar, so'ng uning o'qilishi va fonetik belgilari ustida ishlanadi.

Darsda yangi tovush birinchi marta ajratib, talaffuz qilingandan so'ng, odatda, shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan va aniq talaffuz qilinadigan so'zlar tanlanib, o'quvchilarga talaffuz qildiriladi.

3. So'zdagi tovushlarni sanash va ularning nomini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo'g'inlarni sanash: Olma – ol-ma; o-l-m-a – to'rtta tovush, to'rtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki bo'g'in Bu usuldan o'quv yilining ikkinchi yarmida va keyingi sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalaniladi.

II. Sintez mashqlari.

1. Tovush tomonidan analiz qilingan so'zni yoki bo'g'inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish),shu so'z yoki bo'g'inni o'qish.

2. O'rganilgan undosh yoki unli bilan (na, ni, no; la, lo, li; ay, uy, oy, ...) bo'g'in jadvalini tuzish; bo'g'in jadvalini kitobdan yoki matndan o'qish.¹¹

Xulosa qilganda, faqat analiz yoki faqatgina sintez bilan kifoyalanib bo'lmaydi, ammo tafakkur faoliyatining u yoki bu turi yetakchi o'rin tutadi. O'quvchi so'zni analiz qilish bilan uni leksik ma'noga ega bo'lgan bir butunlik sifatida anglaydi, bu sintezdir; so'z sintez qilinganda uning tovush tarkibiga diqqat jalb etiladi, bu esa analizdir.

Umuman, savod o'rgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar tizimi bolaning faol fikrlashini ta'minlaydi. Analitik-sintetik ishlar usuligina o'quvchilarning bilish mustaqilligini ta'minlaydi, "muammoli" vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o'stiradi.

Tovush-harf tomonidan analiz va sintezni yengillashtiradigan foydali vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo'g'inlar va harf terish taxtasi, shuningdek,

¹¹Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi". 1996, 9-bet.



abak (harakat qiladigan lentali ko'rgazma), kadoskop va shu kabi texnik vositalardan ham foydalaniladi, tovushlarning talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni takroriy eshittirish uchun magnitafon yoki lingofon kabineti xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi.

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap (bolalar yuguryaptilar), sodda yoyiq gap (Lola do'konga bordi), uyushiq bo'lakli gap (Anvar o'qidi va yozdi) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy-mashqlar yordamida egallaydilar.

O'qish darslarida o'quvchilar rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning talaffuzi ustida ishlash ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pgina bolalar talaffuzida kamchiliklar bo'ladi: bir tovush o'rniga boshqasini (sh o'rniga s, r o'rniga l) talaffuz qiladilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so'zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush qo'shib talaffuz qiladilar, tovushlar o'rnini almashtirib qo'yadilar va hokazo. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalanadilar. O'qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklarni aytib, to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatishi lozim.

Savod o'rgatish davridagi har bir dars jarayonida nutq o'stirish ishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shundagina o'quvchilarda adabiy nutq ko'nikmalari shakllanadi va malakaga aylanadi.

Savod o'rgatish davridayoq bolalar grammatika va imlodan ayrim materiallarni amaliy o'zlashtira boradilar, ya'ni ularga mavzu tushuntirilmaydi, nazariy ma'lumot berilmaydi. Bolalar og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirish va yozma mashqlarni bajarish bilan o'quv yilining ikkinchi yarmida yoki keyingi sinflarda o'rganiladigan mavzularni o'zlashtirishga tayyorlanadilar.

Savod o'rgatishning birinchi oylaridayoq bolalar Omon, Tolib, Lola, Naima kabi juda ko'p ismlarni o'qiydilar va kishilarning ismlari bosh harf bilan yozilishini amaliy o'zlashtira boradilar. Bu bilan ular keyinroq o'rganiladigan kishilarning ismi bosh harflar bilan yozilishiga doir imlo qoidasini o'zlashtirishga tayyorlanadilar.



2.3. Savod o‘rgatish davrida so‘z va gap ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda suhbat usulidan foydalanish

Fikr almashish, aloqa-aralashuv gap vositasida amalga oshiriladi, shuning uchun ham gapni o‘qishga, gap tuzishga, gap mazmunini aniqlashga, gapni to‘g‘ri yozishga oid amaliy bilimlar savod o‘rgatish davridan boshlab shakllantiriladi.¹²

O‘quvchilarda nutq, uning og‘zaki va yozma shaklda bo‘lishi, nutqning gaplardan hosil bo‘lishi va gap haqida amaliy tushuncha darslikdagi mazmunli rasmlar asosida hosil qilinadi. Buning uchun o‘qituvchi rasm yuzasidan 3-4 so‘zli savollar tuzib keladi.

Umuman, xat-savod o‘rgatish jarayonida o‘qish va yozuv darslarida gap, gapning so‘zlardan tuzilishi, gapda so‘zlarning alohida-alohida yozilishi, gapning oxiriga mazmuniga qarab nuqta, so‘roq, undov belgisi qo‘yilishi, gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan yozilishi haqida amaliy tushuncha beriladi.

Bu jarayonda, avvalo, “so‘z” tushunchasi shakllantiriladi. O‘qituvchi mazmunli rasm asosida hikoya tuzdiradi, hikoyadan bir qancha predmetlar tanlab olinadi, predmetlar nomi birma-bir so‘raladi. Bunda har bir aytilayotgan nom so‘z ekanligi ta‘kidlanadi. Shu tariqa “so‘z” tushunchasi rasmlar yoki predmetlarning o‘zi yordamida tushuntiriladi. Bu o‘rinda gapning so‘zlardan tuzilishi aytib o‘tiladi. “Bo‘g‘in” mavzusi o‘tilganda so‘zlarning bo‘g‘inlardan tashkil topishi tushuntirib beriladi.

O‘yin tarzida olib boriladigan ish turlari o‘quvchilarning lug‘atini boyitish bilan birga, o‘qishga qiziqish uyg‘otadi, imloviy sezgirlikni oshiradi va so‘zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Savod o‘rgatishning ilk bosqichida so‘z va gap bilan tanishtirishning o‘ziga xos usulidan foydalanish mumkin. Dastlabki jarayon o‘quvchilar maktabga kelgan ilk kunlaridan boshlanadi. Bu vazifani bajarishda o‘qituvchi o‘quvchilarga fikrlar so‘zlar bilan ifodalanishi, so‘zlar nutqda gap bilan bog‘lanib kelishi, so‘zlar yordamida o‘zaro so‘zlashilishi haqida tushuncha beradi. “So‘z” atamasi bilan tanishtiradi, bitta, ikkita, uchta so‘zdan iborat gap tuzdiradi. Buning uchun o‘qituvchi turli narsa-buyumlardan – stol, stul, kitob, daftar, ruchka, qalam, koptok, sumka va hokazolardan foydalanadi va mashg‘ulotni quyidagi tartibda tashkil etadi:

1. Dastlab ularga “So‘z” tushunchasini egallab olishlari ustida mashq qildiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan narsalarni ko‘rsatib, nomlarini so‘rab oladi. O‘quvchilar narsa-buyumlarning nomlarini birma-bir aytadilar. O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini umumlashtirib, shunday deydi: “To‘g‘ri, sizlar juda ko‘p narsalarning nomlarini aytdingiz – kitob, daftar, ruchka, qalam, sumka. Endi qaranglar, sinf xonamizda nimalar bor? O‘quvchilar narsalarni nomlarini nomma-nom aytadilar”.

¹²T.Ga‘fforova, X.G‘ulomova, G.Eshturdiyeva. 1-sinfda savod darslari. Toshkent. “O‘qituvchi” 1996, 36-bet.



O‘qituvchi: Sizlar juda ko‘p so‘zlarni aytdingiz. Masalan, stol, stul, shkaf, eshik. So‘zlar har xil. So‘zlar juda ko‘p. So‘zlar bilan har xil buyumlar, o‘simliklar, hayvonlar nomini aytamiz.

2. Ikkita, uchta so‘zdan iborat gap tuzdirish. Tuzilgan gapni so‘zlarga ajratish ustida mashq o‘tkazish.

O‘quvchilar bu gapda uchta so‘z borligini va ular qanday tartibda joylashganligini aytadilar.

Buning uchun o‘qituvchi stol ustida turgan narsa-buyumlardan bittasini-masalan, kitobni olib o‘quvchilarga ko‘rsatadi, o‘quvchilar uning nomini aytadilar.

O‘qituvchi: Olima, qani aytchi, Salim qaysi so‘zni aytdi?

Olima: Salim “kitob” so‘zini aytdi.

O‘qituvchi: Kitobga yaxshilab qarang, uning to‘g‘risida qaysi so‘zlarni aytish mumkin?

O‘quvchilar: Kitob chiroyli, ko‘k, to‘rtburchak va hokazolar.

O‘qituvchi: Yashanglar. Kitob to‘g‘risida ko‘p so‘zlarni aytdingiz. Endi mana bu narsaga qarang. Bu narsani qaysi so‘z bilan aytish mumkin?

O‘quvchilar: Ruchka.

O‘qituvchi: To‘g‘ri, u “ruchka” so‘zi bilan aytiladi. Yaxshilab o‘ylang, bu ruchka haqida yana qaysi so‘zlarni aytish mumkin?

O‘quvchilar: Ruchka chiroyli, uzunchoq, ko‘k va hokazo.

O‘qituvchi: (Ruchkani stol ustiga qo‘yib). O‘quvchilar, ruchka haqida ikkita so‘zdan iborat gap ayting.

O‘quvchilar: Ruchkada yozaman. Ruchka meniki.

O‘qituvchi: Siz ruchka haqida ikki so‘zdan iborat gap aytdingiz. Qani, Salim aytchi, sen ruchka haqida qaysi gapni aytding?

Salim: Ruchka qizil yozadi.

O‘qituvchi: Sening gapingda nechta so‘z bor?

Salim: Uchta so‘z.

O‘qituvchi: Bu so‘zlarni ayt-chi?

Salim: “Ruchka”, “Qizil” va “Yozadi”.

O‘qituvchi: Behzod, sen ruchka haqida qaysi gapni aytding?

Behzod: Ruchka meniki.

O‘qituvchi: Sening gapingda nechta so‘z bor?

Behzod: Ikkita so‘z bor.

O‘qituvchi: Endi o‘quvchilar mana bu buyum (sumkani ko‘rsatadi) haqida gap tuzing.

Shahzod: Katta sumka.

Feruz: Mening sumkam.

O‘qituvchi: Sizlar ikki so‘zdan iborat gap aytdingiz. Gapda bitta, ikkita, uchta va undan ko‘p so‘z bo‘lishi mumkin. Bugun sizlar bilan narsalar to‘g‘risida bitta, ikkita so‘zdan iborat bo‘lgan gaplar haqida gaplashamiz. Mana men bitta kitobni olib, u haqida gapiraman. Qalam – mening gapimda nechta so‘z bor?

O‘quvchilar: Bitta so‘z.



O‘qituvchi: Endi sizlar qalam haqida ikki so‘zdan iborat gap o‘ylang.

O‘quvchilar: Qalam qora. Qalam uzun.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan aytilgan gaplarni takrorlaydi, tahlil (analiz) qiladi. Xuddi shunday usul boshqa, buyumlar bilan ham o‘tkaziladi. Darsning oxirida o‘qituvchi bunday deb yakun yasaydi: -Bugun biz, qanday ish qilsak, nimalarni ko‘rsak, so‘zlar bilan aytilishini bilib oldik. So‘zlar juda ko‘p, so‘zlar har xil. Bizlar gaplar bilan so‘zlashamiz. Har bir gapda bitta, ikkita va undan ko‘p so‘z bo‘lishi mumkin.

Eslatma: gapdagi so‘zlar tarkibini doskada yashil rangli bo‘r bilan chizib borilsa, yaxshi bo‘ladi. Bu o‘quvchilarga gapdagi so‘z tarkibini esda yaxshi olib qolishlariga yordam beradi.

Doskada gapdagi so‘zlar tarkibi quyidagicha belgilanadi:

Kitob. Kitob rangli. Bu kitob meniki.

Boshlang‘ich ta‘limning ilk bosqichi gap tuzishga, ularni so‘zlarga ajratib, tartib bilan aytishga o‘rgatish zarurdir. O‘quvchilarni gap bilan tanishtirishning ilk bosqichining mazmuni, maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Nutqdagi gapni ajratish.
2. Gap tuzishga o‘rgatish.
3. So‘zlar gapda bog‘lanib kelishi haqida tushuncha berish.

O‘quvchilarni gap bilan tanishtirishdagi dastlabki tushunchalar quyidagilardan iborat:

Kishilar bir-birlari bilan so‘zlar yordamida gaplashishadi, so‘zlar juda ko‘p, har xil va ular nutqda gaplar bilan bog‘lanadi. Bunday tushunchalar amaliy mashqlar asosida ko‘rgazmali usuldan foydalanib amalga oshiriladi. Darsni tahliliy asosda olib borish. O‘quvchilarga gaplar tuzdiriladi.

O‘quvchilarni nutqdagi gaplarni ajratishga, gap tuzishga o‘rgatish hamda o‘quvchilarga gapda so‘zlar bog‘lanib kelishi haqida tushuncha berish uchun darsni taxminan quyidagicha tashkil etish mumkin: dars uchun ikkita syujetli (mazmunli) rasm: “Koptok o‘ynayotgan o‘quvchilar”, “Gullarga leykada suv quyayotgan o‘quvchilar” tasvirlangan rasmlardan foydalaniladi.

O‘qituvchi darsni quyidagi tartibda boshlaydi. (“Koptok o‘ynayotgan o‘quvchilar” rasmini doskaga osib qo‘yib, o‘quvchilarga shunday murojaat etiladi):

-O‘quvchilar, bu rasimga diqqat bilan qarang va mening hikoyamni tinglang. “O‘quvchilar koptok o‘ynashyapti. Salim koptokni Dilbarga irg‘itdi. Dilbar koptokni ilib oldi. Men avval kim haqida gapirdim?”

O‘quvchilar: O‘quvchilar haqida.

O‘qituvchi: O‘quvchilar haqida men nima dedim?

O‘quvchilar: Ularning koptok o‘ynayotganligi haqida.

O‘qituvchi: To‘g‘ri, men o‘quvchilar haqida, ularning koptok o‘ynayotganliklari to‘g‘risida gapirdim. Keyin men nima dedim? Kim haqida gapirdim?

O‘quvchilar: Salim haqida.

O‘qituvchi: Salim haqida nima dedim? Qani, Maftuna, ayt-chi?



Maftuna: Salim koʻptokni Dilbarga irgʻitibdi.

Oʻqituvchi: Keyin men nima dedim? Kim haqida nima dedim?

Oʻquvchilar: Qiz bola, Dilbar haqida. Dilbar koʻptokni ilib oldi.

Oʻqituvchi: Mening qisqa hikoyamda uchta gap bor edi.

Birinchi gap “Oʻquvchilar koʻptok oʻynayapti”, ikkinchisi “Salim koʻptokni Dilbarga irgʻiyibdi” va uchinchi gap “Dilbar koʻptokni ilib oldi”. Endi sizlar, biz nimalar haqida hikoya qilsak, gaplar yordamida gapirishimizni bilib oldingiz. Endi siz ushbu rasm boʻyicha hikoya oʻylab toping. (Oʻqituvchi rasmni doskaga ilib qoʻyadi.) Bexruz! Sen hikoya tuzgin-chi?

Bexruz: Oʻquvchilar gullarga suv quyishyapti. Oʻgʻil bola chelakda suv tashiyapti. Qizcha leyka bilan gullarga suv quyayapti.

Oʻqituvchi: Bexruz juda yaxshi hikoya tuzdi. Men hozir Bexruz tuzgan hikoyani sekin takrorlayman, siz sa diqqat bilan tinglang va bu hikoyada nechta gap borligini aniqlab ayting. (Oʻqituvchi Bexruzning hikoyasini har bir gap oraligʻida uncha uzoq boʻlmagan pauza bilan takrorlaydi.) Bu hikoyada nechta gap bor?

Oʻquvchilar: Uchta gap bor.

Oʻqituvchi: Birinchi gap qaysi?

Oʻquvchilar: Oʻquvchilar gullarga suv quyishyapti.

Oʻqituvchi: Toʻgʻri, Maftuna, ikkinchi gapni takrorla.

Maftuna: Oʻgʻil bola chelakda suv tashiyapti.

Oʻqituvchi: Shahzod, hikoyadagi uchinchi gapni takrorla.

Shahzod: Qizcha leyka bilan gullarga suv quyayapti.

Oʻqituvchi: Behzod, endi sen , barcha gapni takrorla. Shunda hikoya hosil boʻlsin. Behzod takrorlaydi.

Oʻqituvchi: Bu hikoyada kimlar haqida gapiriladi?

Oʻquvchilar: Oʻquvchilar haqida. Oʻgʻil bola va qizcha haqida.

Oʻqituvchi: Oʻgʻil bola haqida nima deyilgan?

Oʻquvchilar: Oʻgʻil bola gullarga suv quyayapti. Oʻgʻil bola chelakda suv tashiyapti.

Oʻqituvchi: Qizcha haqida nima deyilgan?

Oʻquvchilar: Qizcha gullarga suv quyayapti. Qizcha gullarga leykada suv quyayapti.

Oʻqituvchi: Bugun biz hikoya tuzdik. Hikoya qisqa uchta gapdan iborat boʻldi. Hikoya nima haqda ekanligi ham barchaga tushunarli boʻldi.

Demak, biz nima haqida hikoya qilsak ham gaplar bilan gaplashgan boʻlamiz. Oʻqituvchi darsning oxirida oʻquvchilardan bugungi darsda nimalar oʻrganib olganliklarini soʻrab koʻradi. Oʻquvchilarni oʻqituvchi tomonidan berilgan soʻzlar yordamida gaplar tuzishga oʻrgatishdan maqsad berilgan soʻzlardan har xil gaplar tuza olishga oʻrgatishdir. Bulardan tashqari, gaplarda narsalar, buyumlarning nomigina aytib qolinmasdan, balki u haqda tinglovchilarga narsaning nomaʼlum boʻlgan xususiyatlari ham bayon etiladi degan tushuncha berishdir. Bu maqsadlarni amalga oshirishda oʻqituvchidan ijodkorlik talab etiladi.



O‘quvchilar bilan so‘z va gap ustida ishlash orqali o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda suhbat usulining o‘rni katta.



2.4. Soʻz, gap va matnlarni oʻqishga oʻrgatish orqali oʻquvchilarning nutqini rivojlantirish

Tovush va harflarni oʻrgatish bilan bir vaqtda soʻzlarni oʻqishga oʻrgatish ishi ham olib boriladi. Bu ish alifbo davrining dastlabki mashgʻulollaridanoq boshlanadi.

Harfni tanish oʻqishni oʻrganishning dastlabki koʻrinishidir. Ammo soʻz tarkibidagi tovush bilan yakka tovushning talaffuzida keskin farq bor. Bu hol bolalarning oʻqishida maʼlum darajada qiyinchilik tugʻdiradi. Bolalarning toʻgʻri va ongli oʻqishini taʼminlash uchun usul tanlanadi.

Bolalarga biror tovush va harf oʻrgatilgandan soʻng, ular harflardan boʻgʻinlarga boʻlingan soʻz tuzadilar. Masalan, so-at tuzilgan boʻlsin. Oʻqituvchi bolalarga savollar beradi: Bu soʻz necha boʻgʻindan tuzilgan? Birinchi boʻgʻini qaysi? (so-). Ikkinchi boʻgʻini-chi? (-at) Birinchi boʻgʻinning birinchi harfi qaysi? (s) Ikkinchi harfi-chi? (o) Soʻzning ikkinchi boʻgʻini ham shu usulda tahlil qilingach, soʻz boʻgʻinlarga boʻlinib, soʻng oʻqiladi, oʻqishga qiynaluvchi oʻquvchilarga alohida oʻqitiladi.

Ishning boshida yetarli oʻqish koʻnikmasi boʻlmagani uchun ish sekin bajariladi. Yana shunday qilish mumkin: oʻqituvchi xattaxtaga par-ta soʻzini bosma harflar bilan yozib qoʻyadi yoki bir necha soʻzni kesma harflardan tuzadi. Oʻqituvchining taklifi bilan bir oʻquvchi birinchi -par boʻgʻinini oʻqiydi, ikkinchi oʻquvchi -ta boʻgʻinini oʻqiydi, uchinchi oʻquvchi esa parta soʻzini oʻqiydi. Soʻng sinfdagi barcha oʻquvchilar parta soʻzini joʻr boʻlib takrorlaydilar. Oʻqish malakasini sinab koʻrish uchun ayrim bolalarga bu soʻz individual oʻqitilib koʻriladi. Bu usul oʻqish tezligini oshirish, oʻquvchilarning har qanday boʻgʻin va soʻzlarni avval ichda bir marta oʻqib olishi, soʻng uni ovoz chiqarib oʻqishlariga imkon beradi. Bolalarning bunga odatlanib qolmasliklari uchun, ularda oʻqish koʻnikmasi bir oz sistemaga tushib qolgandan soʻng, takror va sekin oʻqishdan asta-sekin toʻgʻri va tez oʻqishga oʻrgatib boriladi.

Shuningdek, So-bit, So-diq, Sa-li-ma kabi yangi boʻgʻindan keyingi boʻgʻinlarni oʻzgartirish, soʻz tarkibidagi harflarni asta-sekin oshirish, kamaytirish yoʻli bilan turli soʻzlar hosil qilish, ularni oʻqish muhim ahamiyatga ega. Bu ishlarning hammasi sinf harf kassasi vositasida tashkil qilinadi.

Soʻz tarkibidagi ayrim harflarni boshqa harflar bilan almashtirib oʻqishda oʻqituvchi ikki xil usuldan foydalanadi: bosh soʻzi xattaxtada kesma harflar yordamida tuziladi, soʻz tarkibidagi o harfini e harfi bilan almashtirishni bolalardan talab qiladi, bolalar ishni bajargach, endi qanday soʻz hosil boʻldi, oʻqing, deb bolalarga topshiriq beradi. Oʻquvchilar soʻzni oʻqib, bosh soʻzining besh soʻzidan farqini anglaydilar yoki oʻqituvchi xattaxtada bor soʻzini tuzib, oʻquvchilardan soʻraydi: Qaysi harf qaysi harf bilan almashtirilsa, bor soʻzi ber soʻziga aylanadi? Bu savolga javob topish ancha murakkab. Bu ishda bolalar qiynalsalar, oʻqituvchi ularga yoʻl-yoʻlakay yordam beradi.

Soʻz

tarkibidagi



ayrim harflarning boshqasi bilan almashtirib o'qish o'quvchilarni tez o'qishga ham o'rgatadi.

Har bir yangi so'zni o'qishni avval xattaxtdagi yozuvdan yoki kesma harflardan tuzib o'qishdan boshlash, keyin kitobdan o'qish zarur. Xattaxtdagi so'zlarni bosma harf bilan yozish, kesma harflardan so'z tuzish bolalar diqqatini bir nuqtaga to'plashga yordam beradi, shuningdek, bolalarning o'qish ko'nikmasini sinab ko'rish uchun imkoniyat yaraladi. Masalan, o'qituvchi olma so'zini bo'g'inlarga bo'lib, tovushlarni bir necha marta aniq qilib aytib beradi, o'quvchilar uni diqqat bilan tinglab, kesma harflardan shu so'zni tuzadilar. Bu so'zni kesma bo'g'inlardan ham tuzishlari mumkin. O'quvchilar tuzgan so'zni tekshirish uchun bir o'quvchi harf kartonida shu so'zni tuzadi. Boshqa o'quvchilar o'zlari tuzgan so'zlarning to'g'riligini o'qituvchining yordami bilan tekshirib chiqadilar.

Har bir darsda kesma harflar bilan ishlashga vaqt ajratish zarur, chunki o'quvchi so'z tuzish jarayonida uni yozishga ham o'rganadi.

Kitobda o'qish uchun tavsiya etilgan so'zlar ustunchalarga bo'lib, guruhlashtirib berilgan, har qaysi ustunchadagi so'zlar boshqa betdagi so'zlardan ajralib turadi. Bir betda ustunchada berilgan so'zlar boshqa betdagi so'zlardan tuzilishi bilan farq qiladi. Bu so'zlarning xususiyati o'rganilgan yangi harf va so'zlarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Ularni o'qishda bolalar ba'zan qiynalishlari ham mumkin. Buning uchun o'qishning dastlabki mashg'ulotlarida kitob ustunchalarida berilgan so'zlarni o'qituvchi xattaxtda yozadi yoki bunday so'zlarni maxsus plakatlarga yozib qo'yishi ham mumkin. Bolalar bu xil so'zlarni o'qishga o'rganib olganlaridan so'ng, kitobdagi so'zlar o'qiladi, o'qish shu yo'l bilan mustahkamlanadi. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi o'quvchilarga savollar beradi: "Ustunchalardagi so'zlarni o'qishda kim qiynaldi?", "Kim to'g'ri va tez o'qiydi?". Bu xildagi savollarga bolalar tezda javob beradilar. Bunday savollar o'qish jarayonida bolalarni diqqat bilan o'tirishga odatlantiradi.

Ustunchadagi so'zlarning to'g'ri o'qilishi uning mazmunini tushunish imkonini beradi. Buning uchun bu so'zlar o'qib bo'lingach, har-bir so'z yuzasidan bolalarga savollar berish lozim. Mashina so'zi o'qilgach, "Mashinani qayerda ko'rgansiz?", O'ktam so'zi o'qilgach, "Kimning oti O'ktam?" kabi savollarning berilishi shu so'zlarning mazmunini tushunishga yordam beradi. Bolalar butun so'zlarni bir-biriga qiyoslash yo'li bilan o'qiydilar. Bunday qiyoslash ongli va to'g'ri o'qishga undaydi. "Alifbe" kitobining 46-betida quyidagi so'zlar ustunchalarda berilgan:

bog'	g'o'ra	G'a-ni
bog'-cha	G'un-cha	G'u-lom
bog'-bon	G'ay-rat	U-lug'

Ko'rinib turibdiki, bog' so'zini o'qigan bola unga – cha bo'g'inini qo'shish orqali "bo'g'cha" so'zini hosil qiladi, so'ng uni qiynalmay o'qiydi. Ikkinchi va uchinchi ustundagi so'zlar ohangdosh (ikki bo'g'inli) so'zlardir. Bunday ohangdoshlik ifodali o'qishni ta'minlaydi. O'qituvchi bolalarga bu



soʻzlarni oʻqitishda soʻz urgʻularining toʻgʻri ishlatilishiga ham eʻtibor berishi kerak.

Ustunchadagi soʻzlarni oʻqish hamisha ham oson boʻlavermaydi, baʻzi hollarda oʻquvchilar qiynalishlari ham mumkin. Bunday qiyinchiliklar turlicha xarakterga ega boʻladi. Baʻzi oʻquvchilar harf birikmalarini toʻgʻri talaffuz qiladilar va oʻqiydilar. Bolalarning oʻqishidagi bu xil kamchiliklarni eʻtiborsiz qoldirib boʻlmaydi. Baʻzilar bola bir boʻgʻinni (mi) oʻqishni yaxshi oʻrgansa, shu turdagi boshqa boʻgʻinlarni (na, ki, si, di kabi) ham yaxshi oʻqiydi, deb oʻylaydilar. Ayniqsa, oʻqish jarayonida kam uchraydigan boʻgʻinlarni oʻqishga koʻproq eʻtibor berish kerak boʻladi. Masalan, nav (navbat), - roq (koʻproq), - sand (xursand) kabi. Bunday hollarda oʻqituvchi doim bolalarga yordam berishi, yaʻni baʻzan shu boʻgʻinni kesma harflar yordamida koʻrsatishi, baʻzan uni oʻqish yoʻllarini izga solish, baʻzan oʻzi oʻqib koʻrsatishi zarur. Bu usullarning yaxshi natija berishi oʻqituvchining mahoratiga bogʻliq.

Ayrim bolalar kitobdagi soʻzlarni birma-bir oʻqigandan soʻng, shu soʻzning aytilishini va kitobdagi oʻrnini yodlab oladilar. Keyingi oʻqish jarayonida soʻz tarkibiga qaramay, yoddan oʻqiydilar. Bunday oʻqishning natijasi yaxshi boʻlmaydi foydasiz harakatga aylanib qoladi. Bunday oʻqishning oldini olish uchun yodlab oluvchi oʻquvchilarni ajratib, kesma harflardan tuzilgan soʻzlarni oʻqishga undash lozim. U holda soʻz tarkibidagi ayrim harf va boʻgʻinlar almashtirib turiladi, kitob oʻqiganda esa, bunday bolalarga shunday topshiriq berish mumkin: "Har ustunning oxirgi soʻzlarini oʻqi" yoki "Har ustunning ikkinchi soʻzini oʻqi" va hokazo. Bu usul bolalarni soʻzlarni yodlab oʻqishdan saqlaydi.

Tajribalar shuni koʻrsatadiki, oʻquvchilarning diqqati oʻqish jarayonida, asosan, harfga, ularning qoʻshilishiga tushunib, bola soʻz maʼnosiga diqqatini qarata olmaydi. Oson soʻzlarning maʼnosini soʻrasangiz ham dadil javob bera olmaydi. Oʻqish – uqish demakdir, yaʻni maʼnosini tushunmay oʻqish, oʻqish hisoblanmaydi. Oʻqishning oʻzi oʻqilayotgan soʻzning maʼnosini ochishdan iboratdir. Demak, oʻquv mashgʻulotining dastlabki kunidanoq, oʻqituvchi oʻqishning toʻgʻriligini qancha zarur deb tushunsa, oʻqishning ongliligini ham shuncha zarur deb bilishi lozim. Qaysi soʻzni oʻqituvchi oʻqish uchun tavsiya etsa, shu soʻzning maʼnosiga bola ham tushunganiga qanoat hosil qilish lozim. Bu hol keyingi matnni tushunishda ham bolani qiynamaydi. Buning uchun:

- 1) oʻqilgan soʻzlar ishtirokida bolani gap tuzishga oʻrgatish;
- 2) oʻqilgan soʻzlarning maʼnosi yuzasidan savol-javob tashkil qilish kerak.

"Lola lola terdi" gapidagi har ikkala "lola" soʻzining maʼnosini bolalar tushunmasliklari ham mumkin. Buni oʻqituvchi aniqlashi va oʻz vaqtida tegishli yoʻllar bilan tushuntirishi lozim.

Ustunchalardagi soʻzlarni oʻqishga oʻrgatish bolalarni gaplarni oʻqishga tayyorlaydi.

Soʻzlarni ongli oʻqish gaplarni ongli oʻqishni taʼminlaydi. Oʻqishda



bolalar gapdagi hamma soʻzlarning maʼnosini tushunmasligi mumkin. Alifbo davrida oʻquvchilarda yetarli oʻqish koʻnikmasi boʻlmagani uchun, ularning diqqati faqat bir soʻz maʼnosiga yoki kichik hajmli gap maʼnosiga tortiladi, matn mazmunini tushunishga hali qiynaladilar. Bunga erishish uchun oʻqituvchi har bir oʻqish mashgʻulotida bolalar oʻqigan soʻz, gap, matn mazmunini tushunib oʻqishlariga eʼtibor berishi kerak. Oʻqilgan gapning, ayniqsa, matnning mazmunini tushunishda ifodali oʻqish katta rol oʻynaydi. Odatda, bolalarning oʻqish ohangi soʻzlashuv ohangidan farq qilmaydi. Oʻqishda jonlilik sezilmaydi, sunʼiy ohang bilan oʻqiydilar. Bu hol, soʻzsiz, ifodalilikni buzadi. Bolalarni ifodali oʻqishga oʻrgatish juda murakkab ishdir. Buning uchun oʻquvchilar matnni bir marta oʻqib chiqadilar. Keyin oʻqituvchi matnning xarakteriga qarab oʻzi ifodali oʻqib beradi, har bir gapni qanday ohang bilan bogʻlash, gap tugaganda nuqta oldidan ovozni pasaytirish kerakligini tushuntiradi. Oʻquvchilarning ifodali oʻqishlari matn mazmunining toʻgʻri va toʻliq tushunilishiga imkon beradi.

Bolalar gap maʼnosini tushunib oldimi yoki gapdagi har bir soʻzning maʼnosini tushundimi? Buni ham oʻqituvchi bilishi kerak. Birinchi sinfda bolalarning javobi toʻliq boʻlishi, bir soʻz bilan “Ha, yoʻq” deb javob berishiga yoʻl qoʻymaslik kerak. Matnning mazmunini tushunish uchun matn tarkibidagi barcha gaplar mazmunini tushunishi, ularni bir-biriga bogʻlay olishi talab qilinadi. Bu esa bola uchun murakkab boʻlganligi sababli oʻqituvchining savoli ularning tushunishiga yoʻllanma, vosita vazifasini oʻtaydi. Oʻqituvchining bunday yordami oʻquv davrining xarakteriga qarab turlicha boʻladi. Masalan, agar alifbo davrining dastlabki bosqichlaridan boshlab bolalarga bunday savollarga javob berish oʻrgatib borilsa, keyinchalik ularga umumiyroq savollar bilan murojaat qilish mumkin.

Tajribalar shuni koʻrsatadiki, bolalarning oʻqish tezligi, oʻqishdagi ifodalilik bir xil rivojlanmaydi. Ayrim oʻquvchilar oʻqish malakasini osonlikcha, tez egallasalar, boshqalari sekin, shoshilmay, boʻgʻinlab oʻqiydilar. Buning sabablari oʻz-oʻzidan maʼlum: oʻquvchilarda oʻzlashtiruvchanlik, oʻz diqqatini markazlashtirish, umumiy tayyorgarlik darajalari hech qachon bir xil boʻlmaydi.

Alifbo davrining uchinchi bosqichida matn mazmunini toʻliq tushunish uchun tanlab oʻqishning ham ahamiyati kattadir. Tanlab oʻqish, avval ayrim soʻzlarni toʻgʻri oʻqishni oʻrgatadi, soʻng ayrim gap, soʻzlarni matn tarkibidan izlab topish, maʼlum soʻzni boshqa soʻzlardan ajrata olish uquvini hosil qiladi. Bu esa bolalardagi oʻqish koʻnikmasini takomillashtiradi. Eng muhimi, matnda fikr nima haqida borayotganini aniqlab olish, matn mazmunini toʻliq tushunib yetishga imkonini beradi, ularning ogʻzaki nutqi rivojlanadi.



2.5. Yozuvga o'rgatish jarayonida o'quvchilar nutqini rivojlantirish

Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar o'qishga o'rganish bilan birga yozuvdan ham ilk malaka hosil qiladilar. Dasturga muvofiq o'quvchilar yozuvdan quyidagi malakalarni egallashlari lozim:


1. Partada to'g'ri o'tirish, daftarni to'g'ri qo'yish, chiziqlarni chamalash, yozayotganda ruchkadan to'g'ri foydalanish, hoshiyaga rioya qilish.

2. Ish daftari yoki alifbe asosida o'zbek alifbosidagi barcha katta va kichik harflarni yozish, shuningdek, harflarni so'zda bir-biriga bog'lab yoza olish: bosma matni yozma matnga aylantirib yozish.¹³

Grafik malaka, birinchidan, qo'l-harakat malakasidir, bu harakat birinchi qarashda muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutqning o'zlashtirilgan birligi bo'lgan tovush grafik belgilarga, ya'ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to'g'ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va imloviy qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o'z fikrini, taassurotini, istaklarini ifodalashda yozuv malakasidan foydalanishni talab qiladi.


Shuni ta'kidlash kerakki, savod o'rgatish davrida bola harflarni yozishdan oldin uni qanday shakllantirishni ko'z oldiga keltirib, fikrlab oladi, ba'zan harf shaklini havoda "chizadi", harf namunasini ko'chiradi, tarkibini tahlil qiladi, uni qanday yozishni o'zicha sekin gapiradi, o'qituvchi o'quvchi yoniga o'tirib, ruchkani to'g'ri ushlatadi va uning qo'li bilan harfni yozishni ko'rsatadi, yoki, o'zi yozib tushuntiradi. Bundan tashqari, bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi. Savod o'rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so'zni yozishi mumkin. Yozuvga o'rgatishning tashkiliy va gigienik shartlari. Maktabda asosiy yozuv quroli sharikli ruchka hisoblanadi, xattaxtaga yozishda esa bo'rdan foydalaniladi.

Savod o'rgatish davrida bolalarni yozuvga o'rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chizikli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog'oz ishlatilgan bo'lsa, keyin quyuq yotiq chiziqlar bilan kesilgan uch chizikli daftardan foydalanilgan:



Bunday daftarda yozuvga o'rgatilgan boladan boshlang'ich sinflarni bitirguncha besh xil daftarga yozishni o'rganish talab etilar edi:

¹³K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi". 2009, 22-bet



Hozirgi vaqtda yozuvga o'rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Xattaxta ham shunga mos bo'lishi talab qilinadi; 2-sinfdan, ba'zan birinchi sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab bir chiziqli daftarga yozishga o'tiladi.

Daftar tutishda bolalarni hoshiya qoldirishga, daftar chiziqlariga rioya qilishga, harflarni bir xil hajmda yozishga, sarlavhani aniq va to'g'ri ajratishga, xat boshidan yozishda joy qoldirishni unutmaslikka o'rgatib borish ularda saranjom-sarishtalikni tarbiyalaydi.

Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi.

Yozuv daftarida o'quvchilar "Alifbe"da o'rganilgan harfni yozma shakllantiradilar. Suhbat uchun daftarning yuqori qismida predmet rasmi yoki biror mazmunli rasm keltirilishi, ayrim predmet nomlarini ifodalovchi so'z chizmasi katakchalarga ajratib berilishi, gap nusxalarining keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Ba'zi o'rinlarda o'quvchilar berilgan gap yoki so'z chizmasini o'zlari mustaqil tasvirlaydilar.

Yozuvga o'rgatishda orfografik elementlar. "Orfografiya" yunoncha so'z bo'lib, "to'g'ri yozuv" degan ma'noni bildiradi. Orfografiya (imlo) adabiy tilning yozma shakli bilan bog'liq bo'lib, to'g'ri yozish haqidagi qoidalar yig'indisidir. Orfografiyani bilmay turib, fikrni adabiy til me'yorlari asosida yozma ifodalab bo'lmaydi.

O'quvchilarning imloviy savodxonligi haqida g'amxo'rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to'g'ri ifodalash, kishilar bilan o'zaro xatosiz muomala qilish uchun g'amxo'rlik demakdir. Savod o'rgatish davrida bolalarda grafik malakani shakllantirish bilan birga imloga oid malaka ham shakllantiriladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarda o'z-o'zini tekshirishga oid malaka shakllantiriladi: ular yozganlarini namuna bilan solishtiradilar, yo'l qo'yan xatolarini topadilar, ularni izohlashga o'rganadilar. Shu davrdanoq ko'chirib yozish, diktant va ijodiy yozuv (insho)lardan foydalaniladi.



Gap va soʻzlarni yozishdan oldingi tayyorgarlik ishlari, muntazam oʻtkazib boriladigan oʻz-oʻzini tekshirish mashqlari, oʻqilgan matnning imlosini kuzatish oʻquvchilarda yuqori savodxonlik garovi boʻlgan orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllantira boradi, ularni yuqori sinflarda oʻrganiladigan imlo qoidalarini puxta oʻzlashtirishga tayyorlaydi.

Yozuv darslarida oʻquvchilar nutqini oʻstirish. Yozuv darslarida ham oʻquvchilar nutqini oʻstirish, fikrlashga oʻrgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Oʻquvchilar gap yoki hikoyani ogʻzaki ravishda erkin tuza oladilar, lekin ammo yozish uchun oʻrganilmagan harf boʻlmagan soʻzni tanlashda qiynaladilar. Bu jarayonda oʻqituvchi yordam berishi va yozuvni kuzatib borishi lozim.

Ijodiy yozuv mashqini doimo izchil ravishda oʻtkazib, asta-sekin murakkablashtirib borish kerak. Bunday mashqlar oʻquvchilarni insho va bayon yozishga tayyorlaydi, oʻz fikrlarini mustaqil ravishda yozma bayon qilishga oʻrgatadi, yozma nutqi rivojlanadi.

**2.6. So‘z va gap ustida ishlashda “Kim oxirini o‘ylab topadi?”,
“Pochtalyon xat olib keldi”, “Jonli so‘zlar” ta’limiy o‘yinlardan
foydalanish orqali o‘quvchilar nutqini rivojlantirish**

Gap so‘zlar tarkibidan yuzilganligi haqidagi bilimlarni mustahkamlash maqsadida ta’limiy o‘yinlar o‘tkaziladi. Chunonchi, “Kim oxirini o‘ylab topadi?”, “Jonli so‘zlar”, “So‘zni top”, “Gap o‘ylab top”, “Rasm haqida gap o‘yla”, “Rasm yuzasidan gap tuz” va hokazo. Yuqoridagi ta’limiy o‘yinlardan ayrimlarini o‘tkazishga doir namuna bayon etamiz.

“Kim oxirini o‘ylab topadi?”¹⁴ ta’limiy o‘yining borishi

O‘qituvchi: - O‘quvchilar, hozir men she’r aytaman, ammo bu she’rning ayrim qatorlaridagi oxirgi so‘zlar tushirib qoldirilgan. Bu tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘zingiz o‘ylab topib, aytishingiz kerak. Men she’rni aytayotganimda xato qilmaslik uchun uni diqqat bilan tinglashingiz kerak. Kim oxirini o‘ylab topsa, shu bola mendan sovg’a oladi. She’r “Binafsha” deb ataladi. Uni o‘quvchilarning sevimli shoiri Quدرات Hikmat yozgan.

Ariq bo‘yin yoqalab,
Borardim o‘y...
Yoni qalin daraxtzor,
O‘xshar xuddi...
Yo‘l-yo‘lakay ko‘rdim men,
Ochilibdi...
Egilib salom berdi,
Sevinib dedim:
Sen bahorning elchisi
Sendan yashnar...
Ellarning qanotida
Xush bo‘ylaring...

O‘quvchilar qatorda tushirib qoldirgan so‘zni aytadilar. Ular topshiriqni yaxshi o‘zlashtirib olganlaridan so‘ng, yangi she’rni aytish mumkin. O‘qituvchi darsning ikkinchi qismida so‘z taklif etadi, O‘quvchilar esa ikki so‘zdan iborat gap tuzadilar.

O‘qituvchi: Olxo‘ri.
O‘quvchilar: Olxo‘ri pishgan.
Olxo‘ri qizil va hokazo.
O‘qituvchi: Anjir.
O‘quvchilar: Anjir shirin.
Anjir mazali va hokazo.

¹⁴G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2011.28-bet.



O‘qituvchi: Stol ... va hokazo so‘zlarni aytadi, O‘quvchilar esa so‘zni oxirini aytib gap tuzadilar. O‘qituvchining topshirig‘iga ko‘ra gapni tahlil qiladilar: u qisqami yoki uzunmi, gapdagi birinchi so‘z nima? ikkinchi so‘z nima?

Mashg‘ulotning oxirida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga darsga yakun yasaydi.

“Pochtalyon xat olib keldi” ta’limiy o‘yinining taxminiy borishi. Bu o‘yin uchun mazmunli rasmlar, pochtalyon uchun kerak bo‘lgan jihozlar tayyorlanadi. Dars quyidagicha olib boriladi:

O‘qituvchi: Bugun biz qiziq o‘yin o‘ynaymiz. Siz xat olasiz va uni bizga o‘qib berasiz. Faqat xat qisqa, ikki-uch so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

Sinfga pochtalyon kirib kelib, o‘quvchilar bilan salomlashib, o‘qituvchiga quyidagi so‘zlar bilan murojaat etadi: “Sizga xat bor” deydi va xatni o‘qituvchiga uzatadi.

O‘qituvchi: Rahmat, marhamat o‘tiring. Hozir men xatni “o‘qiyman”. Siz diqqat bilan tinglang, xatda nimalar yozilganini xotirangizda saqlab qoling. (Mazmunli-sujetli rasmni o‘quvchilarga ko‘rsatmay qo‘liga oladi va uni bir necha daqiqa ko‘zdan kechirib oladi.) “Qizcha rasm chizyapti”. Bu uch so‘zdan iborat bo‘lgan gap. So‘ngra rasmni o‘quvchilarga ko‘rsatadi. Menga kelgan xatdagi gap qisqa, uch so‘zdan iborat. Hozir sizlar ham “xat” olasiz, uni menga “o‘qib berasiz”, so‘ngra xatdagi gap nechta so‘zdan iborat ekanligini aytib berasiz. (Pochtalyon o‘quvchilarga xatni tarqatadi. O‘quvchilar xatdagi rasmlari kartochkani oladilar va berilgan topshiriqqa javob o‘ylaydilar.)

O‘qituvchi: Maftuna, xatingni “o‘qigin” va u haqida gapirib ber.

Maftuna: Kuchukcha yuguryapti. Bu gap ikki so‘zdan iborat, birinchi so‘z – kuchukcha, ikkinchi so‘z – yuguryapti.

O‘qituvchi: Maftuna, sen bizga xatingni ko‘rsat (Maftuna ko‘rsatadi). Maftuna xatini o‘qib, u haqda to‘g‘ri gapira oldimi?

O‘quvchilar: To‘g‘ri.

O‘qituvchi shu tariqa bir qancha o‘quvchilardan so‘rab chiqadi. O‘qituvchi darsning ikkinchi qismida o‘quvchilarga shunday deydi: “Hozir men sehrli so‘zlar haqida yozilgan she’rni aytib beraman. Sizlar diqqat bilan tinglang. Bu she’rda jaranglashi juda o‘xshash so‘zlar bor. She’rni aytib berganimdan keyin jaranglashi o‘xshash bo‘lgan so‘zlarni aytib berasiz.

Osmon tiniq, ko‘k shohi,
Oq bulut kezar gohi,
Gullarga ko‘miladi,
Qantdak o‘rikning shoxi,
Bog‘bon chiqar bog‘iga,
Cho‘pon ketar tog‘iga.
Bolarilar g‘uvillab,
Qo‘nar gul yaprog‘iga.
Qushlar uchib keladi,
Shamol g‘ir-g‘ir yeladi.



Quyosh gullar yuzini,
Sho‘lalarga beladi.
Suvlar shildirab oqar,
Qo‘shig‘i dilga yoqar,

Bizga shodlik keltirding,
Salom senga, gul bahor!

(Uyg‘un. “Bahor” she‘ri)

O‘qituvchi: Siz bu she‘rda qaysi o‘xshash so‘zlarni eshitdingiz?

O‘quvchilar: Shohi, gohi, bog‘iga, tog‘iga, keladi, yeladi, oqar, yoqar.

O‘qituvchi darsning oxirida, o‘quvchilardan bugungi darsda nimalarni bilib olganliklarini so‘rab oladi.

“Jonli so‘zlar” ta‘limiy o‘yini. O‘yinning borishi (taxminiy

O‘qituvchi: Behzod, Behruz, mening yonimga kelinglar. Hozir biz sizlar bilan “Jonli so‘zlar” degan o‘yinni o‘ynaymiz. Maftuna va Gavhar so‘zlar bo‘lishadi. Avval biz ikki so‘zdan iborat gap o‘ylab topamiz. O‘quvchilar ikki so‘zdan iborat gap o‘ylab topadilar, “Ot kishnayapti”.

O‘qituvchi: Gavhar, sen “Ot” so‘zi bo‘lasan, senchi Maftuna “Kishnayapti” so‘zi bo‘lasan. O‘quvchilar, sizlar esa “so‘z”larni shunday tartibda qo‘yingki (chapdan o‘ngga), siz tomondan gap tuzilsin. O‘quvchilar gapni qatorga qo‘yib (yozadilar) chiqadilar.

O‘qituvchi: Endi, Gavhar va Maftuna, o‘zingizni tartib bilan ayting.

Gavhar: Ot.

Maftuna: Kishnayapti.

O‘qituvchi: Gap hosil bo‘ldimi?

O‘quvchilar: Ha.

O‘qituvchi: Ushbu gapda nechta so‘z bor?

O‘quvchilar: Ikki.

O‘qituvchi: Hozir mening yonimga Shuhrat, Gulsum, Salima chiqishadi. Ular so‘zlar bo‘lishadi. Biz nechta so‘zdan iborat bo‘lgan gap tuzishimiz kerak ekan?

O‘quvchilar: Uchta so‘zdan.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Uch so‘zdan iborat bo‘lgan gap tuzing.

O‘quvchilar: Bog‘da olma pishdi.

O‘qituvchi: Shuhrat qaysi so‘z bo‘ladi?

O‘quvchilar: “Bog‘da”.

O‘qituvchi: Gulsum-chi?

O‘quvchilar: “Olma”, Salima esa “pishdi” so‘zi bo‘ladi.

O‘qituvchi: Shuhrat, Gulsum, Salima tartib bilan turmasdan, har joyda turing. O‘quvchilar, bu gapni “O‘qish” mumkinmi?

O‘quvchilar: Yo‘q.

O‘qituvchi: To‘g‘ri, hozir bu gap emas, balki so‘zlar to‘plami. Gapda so‘zlar ketma-ket, tartib bilan turishadi, shundagina gap hamma uchun tushunarli



bo'ladi. Shuhrat, Gulsum, Salima – bizning so'zlarimiz – ular to'g'ri turishlari kerak. Qani, Gavhar, sen chiqib, bizning "So'zlarimizdan" hammamiz o'ylab topgan gapni tuz-chi?

O'qituvchi: Endi Shuhrat, Gulsum, Salima qaysi so'z ekanligini tartib bilan ayting.

Shuhrat: Bog'da

Gulsum: Olma.

Salima: Pishdi.

O'qituvchi: Endi gap hammaga tushunarli bo'ldimi?

O'quvchilar: Ha.

O'qituvchi: Nima uchun?

O'quvchilar: Chunki, so'zlar ketma-ket turishibdi.

O'quvchilar "jonli" so'zlar yordamida 2 - 3 so'zdan iborat gap tuzishadi.

"So'zni top" ta'limiy o'yini

Bu o'yindan maqsad o'quvchilarning so'z to'grisidagi bilimlarini oshirish, 2 -3 so'zdan iborat gap tuzish, gapdagi so'zlar o'rnini aniqlash malakalarini mustahkamlashdan iborat. O'yinni taxminan quyidagicha tashkil etish mumkin:

O'qituvchi: Hozir biz so'zlarni topamiz. Men bu so'zlarni "Telegraf" orqali uzataman, uni topib, u qanday so'z ekanligini aytasizlar (o'qituvchi stolni bolg'a bilan ikki marta taqillatadi.)

O'qituvchi: Shuhrat, men "Telegraf" orqali nechta so'z uzatdim?

Shuhrat: Ikkita so'z.

O'qituvchi: Bu qaysi so'zlar?

Shuhrat: Biz o'tiribmiz.

O'qituvchi: To'g'ri, yasha. Hozir gapingni takrorla va gapingda nechta so'z bo'lsa, shuncha chapak chal.

O'qituvchi: Men yana "Telegraf" orqali so'z uzataman (bolg'acha bilan stolni taqillatadi).

Behruz: Qor yog'yapti, shamol esyapti, yomg'ir yog'yapti.

O'qituvchi: Behruz yaxshi gap o'ylab topdi. Hozir Behruz aytgan gapini yana bir marta tahlil qilib takrorlaydi, sizlar esa o'quvchilar uning gapida nechta so'z bo'lsa, shuncha chapak chalasiz.

O'quvchilar o'qituvchining topshirig'ini bajaradilar.


O'qituvchi: Endi yana "Telegraf" orqali uzatiladigan so'zlarni eshiting. Behzod, qani o'ylab top-chi, men qaysi so'zni uzatdim?

Behzod: Biz shug'ullanyapmiz.

O'qituvchi: Maftuna, Behzod to'g'ri topdimi? Gapda nechta so'z borligini ayt? Qaysi so'z ikkinchi, qaysi so'z birinchi? Endi Behruz "Telegrafchi" bo'ladi. U shoshilmasdan, o'quvchilarga eshitarli qilib, bolg'acha bilan stolni taqillatadi. Behruz "Telegraf" orqali so'zlarni uzatadi va shu tariqa o'yin davom etadi. Agar o'quvchilar qiynalishsa, o'qituvchi ularga yordam beradi, ziyorak, uquvli o'quvchilarni namuna qilib ko'rsatadi.



Darstning oxirida o'quvchilar bilan birgalikda darsga yakun yasaladi. Bunday ta'limiy o'yinlar o'quvchilarda so'z va gap haqidagi dastlabki bilimlarning shakllanishida juda yaxshi natija beradi, ularning og'zaki nutqi rivojlanadi.



2.7. Soʻz va gap ustida ishlashda sinfdan tashqari oʻqish mashgʻulotlari davrida oʻquvchilar nutqini rivojlantirish

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini mardlik, jasurlik va halollik ruhida yoshlarni tarbiyalashda xalq ogʻzaki ijodining juda katta ahamiyati bor. Ayniqsa, ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati borasida “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” deb bejiz aytilmagan. Quyida oʻquvchilarda milliy istiqlol gʻoyasini shakllantirishga yordam beruvchi dars namunasini keltirmoqchimiz:

Mavzu: “Ertaklar olamiga sayohat”.¹⁵

Tarbiyaviy maqsad: oʻquvchilarda ertak qahramonlarining ijodiy sifatlarini shakllantirish, yaxshilik va halollikka muhabbat, yomonlikka nisbatan nafrat tuygʻularini uygʻotish.

Rivojlantiruvchi maqsad: oʻquvchilar oldiga milliy gʻoyaga eʼtiqod tuygʻularini rivojlantirish va milliy gʻururni takomillashtirish.

Darsning borishi:

Oʻqituvchi: Aziz bolajonlar, bugungi oʻqish darslarimizni ertaklar olamiga sayohat qilishga bagʻishlaymiz. Biz avvalgi darslarimizda bir qancha oʻzbek xalq ertaklari bilan tanishgandik. Bugungi darsimiz mazmunli oʻtishida sizlar ham oʻz hissalaringizni qoʻshib borasizlar. Tayyormisiz, bolajonlar?

Xattaxtaga katta davlat va uning uchta shaharchasi tasviri tushirilgan koʻrgazmali qurol hamda “Sirli olmalar daraxti” chizmasi qoyiladi. Bu “Ertaklar mamlakati” boʻlib undagi shaharchalar: “Halollik”, “Vatanparvarlik” va “Mehnatsevarlik” deb nomlanadi.

– Mana, bolajonlar, biz ertaklar mamlakati darvozasining oldida turibmiz. Bu yerga kirishimiz biroz qiyinroq. Bu shaharga hokim ham kerak ekan. Buning uchun quyidagi “Sirli olmalar daraxti”dan foydalanamiz. Bunday olmalar ortiga savollar yashiringan. Savollarga toʻliq javob bergan oʻquvchi bu shahar hokimi boʻlar ekan.

Savol: Ertak nima? Savolga javob bergan oʻquvchi hokim boʻladi va ular yoʻlida davom etadilar. Aziz bolajonlar, bu birinchi shaharchamiz – “Halollik”. Qani, kim bu shaharchani aylanishni istaydi?

Istak bildirgan oʻquvchilarga “Sirli olmalar daraxti”dan olmalar tanlanib oldiriladi va quyidagi savollar beriladi. “Qanday oʻzbek xalq ertaklarini bilasiz?”, “Halollik haqida maqol ayting”, “Halollikni ulugʻlovchi ertak qahramonlarini bilasizmi?”.

Oʻquvchi: Xalq ogʻzaki ijodida ertaklar koʻp. Biroq bular orasida “Halollik” nomli ertak oʻzining taʼsirchanligi bois ahamiyatlidir. Unda bir dehqonning oʻz oshnasiga yeridan bir chekkasini sotgani, oshnasi oʻsha yerdan bir xum tilla topib olib, dehqonga keltirgani, dehqon esa yerni men senga sotganman demak tilla ham seniki deb olmagani, halol mehnat bilan bir kun koʻrishi haqida hikoya qilinadi.

¹⁵ “Boshlangʻich taʼlim” jurnali. Toshkent. 2000, N10.



Boshqa o‘quvchilar halollik haqida maqollar aytadilar:

– Halol boylik qilar sheryurak, o‘g‘irlik mol aylar sonsarak.

Bu kabi savollarga javob bergan o‘quvchilar shaharchani aylanish uchun maxsus yo‘llanmaga ega bo‘lishadi.

Bolalar “Vatanparvarlik” shaharchasiga kirish uchun o‘qituvchisi tomonidan berilgan va “Sirli olmalar daraxti”dagi savollarga javob berishadi. Savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin: “Vatan nima?”, “Vatan haqida she‘r aytib bering?”

1-o‘quvchi: Vatan – bu biz tug‘ilgan tuproq.

2-o‘quvchi: Vatan – bu biz yashayotgan makon.

3-o‘quvchi: Ko‘p yillar Sen uchun she‘rlar bitganmiz,
Shu aziz kunlarni orzu etganmiz.

Millat ona bo‘lsa, Sen – g‘uncha, bo‘ston,
Kelajagi buyuk, hur O‘zbekiston!

O‘qituvchi: Mana, bolajonlar, biz “Ertaklar mamlakati”ning so‘nggi “Mehnatsevarlik” shaharchasi yoniga keldik. Bu yerga kirish uchun esa biz mana bu “Sirli olmalar” ortiga yashiringan savollarga tezlik bilan javob berishimiz lozim bo‘ladi. Diqqat qiling, savollar quyidagilar: “Mehnatsevar”, deganda qanday kishilarni tushunasiz?”, “Mehnat mavzusida maqollardan misollar keltiring”, “Asalari bilan pashsha” ertagida qanday hislat ulug‘lanadi va nima qoralanadi?”

1-o‘quvchi: Mehnatsevar o‘zi, oilasi, xalqi uchun chin yurakdan jon kuydiradigan, tinmay ish va izlanishda bo‘lgan insondir. Ko‘pgina ertaklarda bu xislat ulug‘lanadi, uning natijasi, albatta, katta muvoffaqiyat ekanligi ta‘kidlanadi. “Zumrad va Qimmat”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Chumoli va tipratikan” kabi ertaklar ana shular jumlasidandir.

2-o‘quvchi maqollar aytadi:

Tekinining minnati ko‘p,
Mehnatning ziynati ko‘p.


Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam,
Odam – mehnati bilan.

Mehnat baxt keltirar,
Yozgi menhat – qishki rohat.

Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning – taxti.

Inson qo‘li – gul.
Bir yigitga qirq hunar oz.

3-o‘quvchi: Ertaklarda chumoli, asalari, ayiq kabi jonivorlar mehnatkash jonivorlar sifatida gavdalanadi. “Asalari bilan pashsha” ertagida asalarining



tinimsiz harakatlari, mehnatsevarligi ulug'lanadi, dangasalik, yalqovlik esa qoralanadi.

Uchala shaharlarga kirish uchun aytilgan javoblarda ertak qahramonlari orqali milliylik aks etishiga ko'proq e'tibor qaratilishi kerak. "Sirli olmalar daraxti"dagi olmalarning ortiga yashiringan savollarga javob bergan o'quvchilarga sirli olmalar ham beriladi.

O'qituvchi: Mana, bolajonlar, har biringiz biz tanishib chiqqan ertakdagi ijobiy qahramonlar kabi halol, mehnatsevar bo'lishga intiling. Zero bunday xislatlar doim sizga, albatta omad va baxt keltiradi. Shuning uchun siz ona Vatanimizni sevib ardoqlashga unga a'lo baholaringiz, go'zal xulqingiz, mehnatsevarligingiz bilan munosib avlodlar bo'lishga o'z hissangizni qo'shingiz. Bugungi darsimizda yaxshi ishtirok etgan o'quvchilar albatta, o'z rag'batlariga ega bo'ladilar, deb o'qituvchi ularni chiroyli, xush kayfiyat beruvchi so'zlar bilan alqab qo'llaydi.



2.8. “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” mavzusidagi bayram ssenariysi

O‘qituvchi: Assalomu alaykum aziz mehribonlar, qadrli bolajonlar. “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” nomli bayramimizga hush kelibsizlar. Bugungi bayramimizga ertak qahramonlari tashrif buyurishgan. Kelinglar, bizlarga o‘zlarini tanishtirsinlar.

Olmaxon: Men olmaxonman. Biz do‘stlarim quyon, ayiqpolvon va asalari bir kuni bizlarni ertalab kim uyg‘otishi haqida bahslashib qoldik. Hammamiz o‘zimiz bilganicha javob topdik. Lekin baribir bu holning qanday sodir bo‘lishini bilolmadik.

Sigir: Biz “Nima totli?” ertagi qahramonlarimiz. Bizlar ham taomlar haqida uzoq bahslashdik. Men ham men uchun totli taom ko‘k pichan ekanini aytdim. Qo‘y esa ko‘m-ko‘k barra o‘t dedi. Ot esa arpa, deb javob berdi. Mushuk eng totlisi sut, go‘sh dedi. Shunday qilib barchamiz uchun eng totli taomni aytdik.

Ayiqpolvon: Badahshon o‘rmonida yashayman. Do‘stlarimga doim o‘zimni “Polvon” deb aytaman. Kunlardan bir kun do‘stlarimni mehmon qilmoqchi bo‘ldim, do‘stlarim juda sevindilar. Ularni og‘zini ochirmoqchi edim. Do‘stlarim meni uzoq kutganidan so‘ng yuzlarim shishgan ahvolda kirib keldim. Ular buni sababini so‘raganda qishloqni bo‘ridan qutqardim dedim. Lekin yolg‘onim darrov oshkor bo‘ldi. Ari to‘dasi meni talaganidan ular bilishdi. Arilardan qutulgach, do‘stlarimdan uzr so‘ragani yugurdim.

O‘quvchi: Men ularni tanidim ular “Asalari bilan pashsha” ertagi qahramonlari. Asalari bahor kelgach, sevingancha sharbat yig‘ishga kirishdi. Pashsha tumshayib qovog‘ini solib: Atrof orasta, men esa ochman, yegani narsa yo‘q. U asalarini hafa qilmoqchi bo‘libdi. Pashsha asalariga kel gapim bor debdi. Pashsha esa asalarini sharbatini ataylab to‘kib yuboribdi. Asalari indamay yana sharbat yig‘ishga ketibdi. Pashsha och, madorsiz qolib ketaveribdi.

O‘qituvchi: Barakalla, bolajonlar bu qahramonni tanidingizmi? Kelinglar, u o‘zini tanishtirsin. Marhamat “Ko‘ngilchan o‘tinchi”.

O‘tinchi: O‘rmondan o‘tin uchun daraxt kesgani bordim, daraxt tilga kirdi, uni kesmasligimni o‘tindi. Emanni kesmoqchi bo‘lganimda u ham zorlandi. Shunday qilib hamma daraxtlarni kesmadim. Birdan o‘rmon ichidan chol chiqdi. Men unga salom berdim. U esa daraxtlarni kesmaganim uchun tillo xipchin berdi. Xipchinni silkitsam istaganim muhayyo bo‘lardi. Men shundan so‘ng baxtli yashay boshladim.

O‘quvchi: Ha, ustoz men uni tanidim. U “Uzun terak” qahramoni. Bir kuni terak baland o‘sganini ko‘z-ko‘z qilibdi. Hoy, daraxtlar muncha sekin o‘sasizlar, men kichikligimda ham shunday edilaring, hali ham o‘shandaysizlar debdi. Terak naynov bo‘lib o‘sgani sari maqtanaveribdi. Kunlardan bir kun qattiq shamol kuchayib, bo‘ronga aylanibdi. Daraxtlarning shoxlari bir-biriga urilibdi. Terak esa tebrana-tebrana sinib ketibdi. Terak ingrab yerga yiqilibdi. Boshqa daraxtlar unga yordam beribdi. Terak qilgan ishlaridan uyalib, do‘stlaridan uzr so‘rabdi.



Baliqcha: Men “O‘jar baliqcha” qahramoni bo‘laman. Katta moviy dengizda aka-opalarim bilan mazza qilib suzib yurardik. Bir kuni zerikdim. Aka-opalarimga injiqlik qildim. Ularning gapiga quloq solmay suzib ketdim. Oqibatida dengiz chirmovug‘iga ilashdim. Yordam so‘radim, ammo ota-onam uzoqda bo‘lgani uchun eshitmadilar. Katta baliqlar meni yemoqchi edi. Birdan onam va akalarim kelib meni qutqardilar. Shundan so‘ng ularni aytganini qiladigan, o‘jarlik qilmaydigan bo‘ldim.

O‘quvchi: Axir bu “Dono Dehqonbobo” ertagidan-ku. Dehqonboboning bir tanob yeri bo‘lib, qishin-yozin ishlar ekan. Uning hosili doimo mo‘l bo‘larkan. Bir kun podsho dehqonboboning ta‘rifini eshitibdi. Navkarlari boboni saroyga keltirishibdi. Shoh dehqonbobodan nima barakali deb so‘rabdi. Shohim, dunyoda barakali narsa oddiy urug‘ debdi. Urug‘ning tavsifini aytibdi. Shoh dono dehqonning javobiga qoyil qolib hazinabondan o‘n tillo berishini buyuribdi. Shunda dehqonbobo shohdan bir g‘alvir urug‘lik bug‘doy so‘rabdi. Bu gapni eshitgan shoh dehqonboboning asl dehqonga xos fazilatiga yana qoyil qolib bir g‘alvir bug‘doy va o‘n tillo mukofot beribdi.

O‘quvchi: Men bilgan ertak qahramonlari kelishibdi. Sizlarga ham bu “Quyuncha va ayyor tulki” ertagini aytib beray. Yovvoyi hayvonlarning ovozidan qo‘rqan quyuncha uyasiga chopibdi. Yo‘lda chuqurga tushub ketibdi. U dodlab o‘rtoqlarini chaqiribdi, ammo do‘stlari uzoqda edi. Birdan ayyor tulki kelib nega quyon yig‘layotganini so‘radi. Ichida nonushtaga yeyishni mo‘ljallagan edi. Tulki dodlama debdi, yordam berishini aytibdi. Quyuncha tuni bilan chuqurda yig‘lab chiqibdi. Tongda ovoz eshitibdi. Quyuncha uni tulki deb o‘ylabdi, ammo u fil edi. Fil unga yordam beribdi. Tulki kelsa quyon yo‘q, noiloj yana tulki ovqat izlashga o‘rmonga kirib ketibdi.

O‘tinchi yigit: Salom aziz bolajonlar. “O‘tinchi yigit bilan sher” ertagidan tashrif buyurdik. Bir kuni men o‘tin tergani chiqdim. Daraxtni yiqitmoqchi bo‘lganimda sher kelib qoldi. Sher meni terakni qulata olasanmi deb so‘radi, men ha dedim. U men bilan kurashmoqchi bo‘ldi. Men kuchimni yarmi uyda qolganini aytdim, sher olib kelishga ruhsat berdi. Saldan so‘ng yana qaytib keldim. Sherga kuchimning ozrog‘i yo‘lda tushib qolganini, olib kelgunimcha sherni bog‘lab qo‘yishimni aytdim. U rozi bo‘ldi. Sherni mahkam qilib bog‘laganimdan so‘ng sher aldanganini tushundi. Sher qo‘yib yuborishimni iltimos qildi. Men aqling bilan yengding, senga qoyil dedi. Shundan so‘ng biz sher bilan do‘st tutindik.

O‘qituvchi: Kelinglar, bu qahramonlarning “Ur to‘qmoq” ertagini men o‘zim so‘zlab beray. Olatog‘ etagida chol va kampir yashardi. Chol ovchi bo‘lib bir kuni laylakni ilintiribdi. Chol laylakni qo‘yib yuborgani uchun uning istaklarini muhayyo qilishini aytib uchib ketibdi. Ovi yurishmay qolganida chol laylakning oldiga ketayotganida yo‘lda cho‘ponlar laylakdan “Ochil dasturxon”ni olishni tavsiya qilishibdi. Laylak ochil dasturxonni bergach ortga qaytibdi. Yo‘lda boyni uchratibdi unga ochil dasturxonga qarab turishini va zinhor “Ochil dasturxon” demasligini aytib uyquga ketibdi. Boy bu so‘zni aytibdi. Oldida yetmish xil ovqat paydo bo‘libdi. Boy dasturxonni almashtirib qo‘yibdi. Uyga chol



borib qarasa hech qanday ovqat yo‘q emish. Chol yana laylak oldiga ketayotganida yilqichilar laylakdan “Qaynar xumcha”ni so‘rashni taklif qilishibdi. Laylakdan qaynar xumchani olganidan so‘ng yana yo‘lda boyni uchratibdi. Chol yana “Qaynar xumcha” deya ko‘rmang, deb mizg‘ibdi. Boy yana xumchani almashtirib qo‘yibdi. Kampir oldiga xumchani olib borgan chol hunob bo‘libdi. Laylakni aldabdi deb o‘ylabdi. Laylakni oldiga ketayotib chol yilqichilarni ko‘ribdi. Bo‘lgan voqeani aytib beribdi. Shunda yilqichilar endi “Ur to‘qmoq”ni olishni aytishibdi. Laylakdan sovg‘asini olgan chol yo‘lda yana boyni ko‘rib qolibdi. Chol boyga aslo “Ur to‘qmoq” deya ko‘rmang deb bir oz uxlashini aytibdi. Boy “Ur to‘qmoq” degan ekan shu zahoti boyni to‘qmoq tazirini beribdi. Boy choldan uni ur to‘qmoqdan halos qilishini so‘rabdi. “Urishdan to‘xta to‘qmoq” degan ekan shu zahoti to‘xtabdi. Boy dasturxonni va xumchani qaytarib beribdi. Chol hursand uyiga qaytibdi. Kampirga olib kelgan narsalarini ko‘rsatibdi. Shundan so‘ng chol va kampir baxtli hayot kechirishibdi.

O‘quvchi: “Oltin tuyoqli kiyik” ertagini bolalarga men tanishtiray. Alpon ismli bir yetim bola bo‘lgan ekan. U dalada ishlab kun o‘tkazar ekan. Bir kuni kiyikni uch kishini quvib ketayotganini ko‘rib kiyikni boshqa tomonga ketganini ko‘rsatibdi. Kiyik chayladan chiqib gapiribdi. Bolaga rahmat aytib tuyoqlarini yerga urgan ekan oltin tangalar sochilibdi. Agar boshinga og‘ir ish tushsa oltinlardan birini ishqala, men yetib boraman, debdi. Bola oltinlarni yashirib qo‘yibdi. Ishida davom etibdi. Otliqlar qaytib kelib bolani aldagani uchun savalabdi, bola yashirgan oltinlarni ko‘rib qolishibdi. Kiyikni topib berishni talab qilishibdi. Bola bilintirmasdan oltin tangalardan birini og‘ziga solib olibdi. Bolani haydab ketayotgan otliqlar charchab uxlab qolishibdi. Bola og‘zidagi tilloni silagan zahoti kiyik paydo bo‘libdi. Otliqlar uyg‘onib uni quvib ketishibdi. Kiyikni tutolmagach bolani qiynay boshlabdi. Bola og‘zida tilloni yana ishqalagach kiyik yana paydo bo‘libdi va bolani qo‘yib yuborishini so‘rabdi. Otliqlar evaziga oltin so‘rabdilar. Kiyik rozi bo‘lib ularga qarab tillo socha veribdi otliqlar tillo ostida qolishibdi. Bola kiyik yashaydigan tog‘ orqasiga ketibdi. U yerda baxtli yashabdi.

Chol: Azizlarim, biz esa “Oq ko‘ngil chol va hasis boy” qahramonlarimiz. Sizlarga bu ertakni aytib beray. Kunlardan bir kun men o‘tin olib kelayotgandim. Juda chanqaganim uchun ko‘ldan suv ichmoqchi bo‘lganimda boltam suvga tushib ketdi. Hafa bo‘lib o‘tirgan edim, ko‘ldan suv parisi chiqib, boltamni olib chiqdi. Lekin bolta oltin edi. Men rozi bo‘lmadim, chunki bu mening boltam emas edi. Pari kumush bolta olib chiqdi, u ham emasdi. Oxiri o‘zimning boltamni olib chiqdi. Qolgan boltalarni ham berdi. Boltalardan birini sotib oziq-ovqat sotib oldim. Boy qo‘shnim mendan voqeani bilib olgach ko‘lga borib boltasini suvga otib yig‘labdi. Suv parisi paydo bo‘lib, unga oltin boltani olib chiqibdi, lekin pari boyning ayyorligini sezibdi. Boy meni boltam shu debdi. Boyning yolg‘on gapidan ranjigan pari uni jazolagan.

O‘quvchi: “Olqar” ertagi qahramonlarini men aytib bera qolsam. Qadim zamonda Olqar degan bola yashagan ekan. Ota-onasidan ajragani uchun u ochlik,



qiyinchilikda kun kechirarkan. Bola boyga xizmatkorlikka oling deb yalinibdi. Boy bazo'r rozi bo'libdi. Olqar halol mehnat qila boshlabdi. Buni ko'rgan boy uni yaxshi ko'rib qolibdi. Boy seni savodli qilay deb to'rt yilda besh harf: O, L, Q, A, R ni o'rgatibdi va o'z ismini o'zi aytadigan bo'libdi. Bir kuni Olqar katta xo'kizni qo'shga qo'shib, yer haydayotgan ekan birdan quyon meni yashir deb surkalibdi. Olqar quyonni yashiribdi. boy kelib quyonni ko'rdingmi deb so'rasa, Olqar xuv anavi tomonga ketdi debdi. Quyon rahmat aytibdi va bola quyonni uyini so'rabdi. Bola quyonni gapi rost bo'lsa boray deb xarsangtosh oldiga boribdi. Quyon toshni ko'tar, ostidan boyluk olasan debdi. Toshni olib qarasa ikki humchada oltin bor ekan. Bola tillalar yordamida hayotinini o'nglab olibdi. Boy bo'lib kambag'allarga yordam beribdi.

O'qituvchi: Barchangizga rahmat. Bolajonlar, ertaklarni eshitdingiz. Siz nimalarni tushunib yetdingiz.

O'quvchi: Men "Nima totli?" ertagidan hammani o'zini yoqtirgan taomi bo'ladi. Hamma har xil narsalarni yoqtirishini bildim.

O'quvchi: Men esa "Maqtanchoq ayiq" ertagidan behuda gapirmaslik kerak ekanini bilib oldim.

O'quvchi: "Asalari bilan pashsha" ertagidan tushumdimki, doimo mehnat qilish kerak, ishlagan – tishlaydi.

O'quvchi: "Ko'ngilli o'tinchi" ertagidan ko'ngilchanglik, mehribonligi uchun mukofot oldi. Mehribon bo'lish kerak ekan.

O'qituvchi: Barakalla bolajonlar, yana kimlar ertaklardan xulosa chiqardi.

O'quvchi: "Uzun terak" ertagidan do'stlarni hafa qilmaslik kerakligini, maqtanchoqlik yomon odat ekanini tushundim.

O'quvchi: O'jar baliqchaga o'xshab kattalarning gapiga quloq solmaslik yomonlikka olib borishini bilib oldim.

O'quvchi: Dono dehqonbobo mehnati orqali va aqli orqali podshoh sovg'asini oldi. Dono bo'lishga harakat qilish kerak ekan.

O'quvchi: Ayyorlik oqibati doimi yomondir.

O'quvchi: Sher kabi kuchli bo'lish uchun aqlli ham bo'lish kerak.

O'quvchi: Mehribonligi uchun chol laylakdan katta sovg'a oldi.

O'quvchi: "Oltin tuyoqli kiyik" ertagidagi bola oqko'ngilligi uchun baxtga erishdi.

O'quvchi: "Ochiqko'ngillik, to'g'rilik baxt, saodat keltiradi".

O'quvchi: Mehnat, mehribonlik inson orzusiga yetkazadi.

O'qituvchi: Hammangizning aytganingiz to'g'ri. Bolakaylar, barakalla. Ertaklardan xulosa chiqarganingiz ma'lum bo'ldi. Ishonamanki, aytganlaringizga amal qilasizlar.¹⁶

¹⁶“Boshlang'ich ta'lim” jurnali. Toshkent. 2008,N2.



2.9. O‘qish va yozuvga o‘rgatish yuzasidan dars ishlanmasi

Yozuv daftari va uning chiziqlari bilan tanishtirish. Bayroqcha, lola va soat rasmlarini chizish.

1. O‘quvchilar faoliyatini uyushtirish. O‘qituvchi hozir yozuv darsi ekanligini aytib, yozishni o‘rganishning ahamiyati haqida to‘xtaladi. Yozayotgan vaqtda to‘g‘ri o‘tirish kerakligini aytib, o‘quvchilar diqqatini “To‘g‘ri o‘tirish” rasmiga qaratadi. O‘quvchilar to‘g‘ri o‘tirishni mashq qiladilar. O‘qituvchi bu holda har bir o‘quvchi bilan individual ishlaydi, ularni to‘g‘ri o‘tirishlariga yordam beradi.

2. ”Yozuv daftari” bilan tanishtirish. Bolalarga yozuv daftari ko‘rsatilib, shu daftar yordamida yozishga o‘rganishlari, daftarni ozoda va yaxshi saqlash kerakligi tushuntiriladi. Har bir o‘quvchiga daftar tarqatiladi. O‘quvchilar daftarni varaqlab tanishib chiqadilar. Daftarni qiyalikda qo‘ygan holda yozish kerakligi ham tushuntiriladi.

3. Ruchka bilan tanishtirish. O‘qituvchi sharikli ruchka haqida, undan foydalanish haqida tushuncha beradi. O‘quvchilarga ruchkani to‘g‘ri ushlab qoidalarini o‘rgatadi, amalda ko‘rsatadi. O‘quvchilar ruchkani ushlab ko‘rsatadilar. O‘qituvchi yozuv darsida rangli qalamlardan ham foydalanishni aytadi.

4. Dam olish daqiqasi (fizminut). Shoir Qambar O‘taning “Qalam deydi” she‘ri o‘qib beriladi, mazmuni izohlanadi. O‘quvchilar har bir satrni o‘qituvchi yordamida jo‘r bo‘lib aytadilar:

Qalam deydi:

Yozavergin,

Ilm konin

Qazavergin.

Faqat meni

Sindirmagin

Ayab, aslo

Tindirmagin.

5. Rasm asosida suhbat o‘tkazish. Bolalarning diqqati “Yozuv daftari”dagi rasmlarga qaratiladi. “Yozuv daftari”da berilgan bayroqcha, lola va soat haqida suhbat o‘tkaziladi.

6. ”Yozuv daftari”dagi chiziqlar bilan tanishtirish. Daftar chiziqlari ikki xil kenglikda berilgan. Orasi kichik sidirg‘a chiziqli va orasi keng chiziqli. Yozish asosan sidirg‘a chiziqlar orasida bo‘ladi. Daftardagi qiya chiziqlar esa harflarni qanday qiyalikda yozish kerakligini ko‘rsatadi.

7. Dam olish daqiqasi. Quyidagi topishmoqni o‘qituvchi harakat bilan aytadi: Oq yer ochdim, qora urug‘ sochdim. (Daftar va undagi yozuv.) Topishmoqning javobi topilgach, bolalar jo‘r bo‘lib aytadilar.

8. Amaliy mashqlar. O‘quvchilarga bayroqchaning rasmini chizish topshiriladi. O‘qituvchi bayroqcha rasmini chizishda qo‘l qanday harakat



qilinishi kerakligini tushuntiradi: ruchka uchi keng chiziqlar o'rtasiga qo'yilib, pastga tomon chizib, yozuv yo'lining pastki chizig'iga yetganda chizish to'xtatiladi.

Bu bayroqchani cho'pi bo'ladi. Chizishni boshlagan nuqtaga ruchka uchini qo'yib dastlab o'ngga, so'ng chapga-bayroqcha tayog'i tomon chizasiz.

O'quvchilar ish daftaridagi nuqtalar bilan berilgan "bayroqcha"larning ustidan chizib chiqadilar, so'ng namunaga qarab bayroqchalarni mustaqil ravishda chizadilar.

9. Dam olish daqiqasi. Bolalar charchab qolmasliklari uchun dam olish daqiqasi ko'proq o'tkaziladi. Dam olish daqiqasida turli she'rlardan, topishmoqlardan, tez aytishlardan foydalanish mumkin.

– Bog'chaga boraman, – deydi.

– Birga boraman, – deydi.

– Qo'shiq aytaman, — deydi.

– Rasm solaman, – deydi.

–Dono bo'laman, – deydi.(Olim Qo'chqorbekov.)

10. O'qituvchi daftarning pastki qismida berilgan rasmlarni nuqtalar ustidan chizish namunasini xattaxtada ko'rsatadi. So'ngra o'quvchilar ish daftarida ishlaydilar.

11. Dars yakunida o'quvchilardan bu darsda nimalarni o'rganganliklari so'raladi. Ular bu dars yozuv darsi ekanligini, unda partada o'tirish, ruchka ushlab, daftarni qanday qiyalikda qo'yish qoidalarini, bayroq va boshqa shakllarni chizishni o'rganganliklarini aytadilar. Bunday mashqlarni uyda ham davom ettirishlari aytilib, dars yakunlanadi.



Xulosa

Ona tili ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, Vatanimiz istiqboli yolida faol xizmat qila oladigan, ma'naviy yetuk, savodli va madaniyatli kishilarni yetishtirib chiqarishdir. Boshlang'ich ta'lim umumiy ta'limning poydevori, tayanch nuqtasi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'rganilgan bilimlar ta'limning keyingi bosqichi uchun asos bo'ladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limiga alohida e'tibor qaratmoq zarur.

Boshlang'ich sinfda ona tili darslari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish bilan bir qatorda ularning aqliy qobiliyatlarini o'stirishga, mustaqil, erkin fikrlashga orgatishga katta e'tibor berish kerak. Zero, Respublikamiz istiqboli uchun ham mustaqil fikrlashga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon kadrlar nihoyatda zarur. Bunday kadrlarni tayyorlashning poydevori boshlang'ich sinfdanoq tayyorlanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim mazmuni va shakllarini yangilashga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Ta'lim jarayoniga o'quvchi faqat ob'yekt emas, balki sub'yekt bo'lib qatnashishi zarur.


Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi deyiladi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko'nikmaga aylanmagan bo'lishi mumkin.

Savod o'rgatishni to'g'ri tashkil etish uchun bolalarning unga nutqiy tayyorgarligini maxsus o'rganish talab etiladi. Maxsus o'rganish avgust oyida, hatto undan oldin – bahordan boshlanadi. Bunda 1- sinfga keladigan o'quvchining oilasiga yoki bolalar bog'chasiga boriladi, suhbat o'tkaziladi, bolalarning umumiy bilim saviyasi aniqlanadi.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

O'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o'quvchi ruchkani qanday ushlab, qanday yurgizish haqida o'ylab o'tirmay, so'z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o'qish va yozish malakasi harakatning o'ylab o'tirmay amalga oshirilish jarayonidir.

Ushbu uslubiy-qo'llanmamizda savod o'rgatish davrida yangi pedagogik texnologiyalar foydalanish; nutq – o'quvchilar tafakkurini o'stirishdagi muhim vosita; savod o'rgatish jarayoni; tovush ustida ishlash jarayoni davomida o'quvchilar nutqini rivojlantirish; savod o'rgatish davrida so'z va gap ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda suhbat usulidan foydalanish; so'z, gap va matnlarni o'qishga o'rgatish orqali



o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish; yozuvga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar nutqini rivojlantirish; so‘z va gap ustida ishlashda “Kim oxirini o‘ylab topadi?”, “Pochtalyon xat olib keldi”, “Jonli so‘zlar” ta’limiy o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilar nutqini rivojlantirish; so‘z va gap ustida ishlashda sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari davrida o‘quvchilar nutqini rivojlantirish haqidagi fikrlar bayon qilindi.



Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar nutqini rivojlantirish

O'qituvchi: - O'quvchilar, hozir men she'r aytaman, ammo bu she'rning ayrim qatorlaridagi oxirgi so'zlar tushirib qoldirilgan. Bu tushirib qoldirilgan so'zlarni o'zingiz o'ylab topib, aytishingiz kerak. Men she'rni aytayotganimda xato qilmaslik uchun uni diqqat bilan tinglashingiz kerak. Kim oxirini o'ylab topsa, shu bola mendan sovg'a oladi. She'r "Binafsha" deb ataladi. Uni o'quvchilarning sevimli shoiri Qudrat Hikmat yozgan.

Ariq bo'yin yoqalab,
Borardim o'y...
Yoni qalin daraxtzor,
O'xshar xuddi...
Yo'l-yo'lakay ko'rdim men,
Ochilibdi...
Egilib salom berdi,
Sevinib dedim:
Sen bahorning elchisi
Sendan yashnar...
Ellarning qanotida
Xush bo'ylaring...

O'quvchilar qatorda tushirib qoldirgan so'zni aytadilar. Ular topshiriqni yaxshi o'zlashtirib olganlaridan so'ng, yangi she'rni aytish mumkin. O'qituvchi darsning ikkinchi qismida so'z taklif etadi, O'quvchilar esa ikki so'zdan iborat gap tuzadilar.

O'qituvchi: Olxo'ri.

O'quvchilar: Olxo'ri pishgan.

Olxo'ri qizil va hokazo.

O'qituvchi: Anjir.

O'quvchilar: Anjir shirin.

Anjir mazali va hokazo.

O'qituvchi: Stol ... va hokazo so'zlarni aytadi, O'quvchilar esa so'zni oxirini aytib gap tuzadilar. O'qituvchining topshirig'iga ko'ra gapni tahlil qiladilar: u qisqami yoki uzunmi, gapdagi birinchi so'z nima? ikkinchi so'z nima?

Mashg'ulotning oxirida o'qituvchi o'quvchilar bilan birga darsga yakun yasaydi.

"Pochtalyon xat olib keldi" ta'limiy o'yinining taxminiy borishi. Bu o'yin uchun mazmunli rasmlar, pochtalyon uchun kerak bo'lgan jihozlar tayyorlanadi. Dars quyidagicha olib boriladi:

O'qituvchi: Bugun biz qiziq o'yin o'ynaymiz. Siz xat olasiz va uni bizga o'qib berasiz. Faqat xat qisqa, ikki-uch so'zdan iborat bo'lishi kerak.



Sinfga pochalyon kirib kelib, o'quvchilar bilan salomlashib, o'qituvchiga quyidagi so'zlar bilan murojaat etadi: "Sizga xat bor" deydi va xatni o'qituvchiga uzatadi.

O'qituvchi: Rahmat, marhamat o'tiring. Hozir men xatni "o'qiyman". Siz diqqat bilan tinglang, xatda nimalar yozilganini xotirangizda saqlab qoling. (Mazmunli-sujetli rasmni o'quvchilarga ko'rsatmay qo'liga oladi va uni bir necha daqiqa ko'zdan kechirib oladi.) "Qizcha rasm chizyapti". Bu uch so'zdan iborat bo'lgan gap. So'ngra rasmni o'quvchilarga ko'rsatadi. Menga kelgan xatdagi gap qisqa, uch so'zdan iborat. Hozir sizlar ham "xat" olasiz, uni menga "o'qib berasiz", so'ngra xatdagi gap nechta so'zdan iborat ekanligini aytib berasiz. (Pochalyon o'quvchilarga xatni tarqatadi. O'quvchilar xatdagi rasmlari kartochkani oladilar va berilgan topshiriqqa javob o'ylaydilar.)

O'qituvchi: Maftuna, xatingni "o'qigin" va u haqida gapirib ber.

Maftuna: Kuchukcha yuguryapti. Bu gap ikki so'zdan iborat, birinchi so'z – kuchukcha, ikkinchi so'z – yuguryapti.

O'qituvchi: Maftuna, sen bizga xatingni ko'rsat (Maftuna ko'rsatadi). Maftuna xatini o'qib, u haqda to'g'ri gapira oldimi?

O'quvchilar: To'g'ri.

O'qituvchi shu tariqa bir qancha o'quvchilardan so'rab chiqadi. O'qituvchi darsning ikkinchi qismida o'quvchilarga shunday deydi: "Hozir men sehrli so'zlar haqida yozilgan she'rni aytib beraman. Sizlar diqqat bilan tinglang. Bu she'rda jaranglashi juda o'xshash so'zlar bor. She'rni aytib berganimdan keyin jaranglashi o'xshash bo'lgan so'zlarni aytib berasiz.

Osmon tiniq, ko'k shohi,
Oq bulut kezar gohi,
Gullarga ko'miladi,
Qantdak o'rikning shoxi,
Bog'bon chiqar bog'iga,
Cho'pon ketar tog'iga.
Bolarilar g'uvillab,
Qo'nar gul yaprog'iga.
Qushlar uchib keladi,
Shamol g'ir-g'ir yeladi.
Quyosh gullar yuzini,
Sho'lalarga beladi.
Suvlar shildirab oqar,
Qo'shig'i dilga yoqar,

Bizga shodlik keltirding,
Salom senga, gul bahor!

(Uyg'un. "Bahor" she'ri)

O'qituvchi: Siz bu she'rda qaysi o'xshash so'zlarni eshitdingiz?

O'quvchilar: Shohi, gohi, bog'iga, tog'iga, keladi, yeladi, oqar, yoqar.





O'qituvchi darsning oxirida, o'quvchilardan bugungi darsda nimalarni bilib olganliklarini so'rab oladi.

“Jonli so‘zlar” ta’limiy o‘yini. O‘yinning borishi (taxminiy).

O'qituvchi: Behzod, Behruz, mening yonimga kelinglar. Hozir biz sizlar bilan “Jonli so‘zlar” degan o‘yinni o‘ynaymiz. Maftuna va Gavhar so‘zlar bo‘lishadi. Avval biz ikki so‘zdan iborat gap o‘ylab topamiz. O‘quvchilar ikki so‘zdan iborat gap o‘ylab topadilar, “Ot kishnayapti”.

O'qituvchi: Gavhar, sen “Ot” so‘zi bo‘lasan, senchi Maftuna “Kishnayapti” so‘zi bo‘lasan. O‘quvchilar, sizlar esa “so‘z”larni shunday tartibda qo‘yingki (chapdan o‘ngga), siz tomondan gap tuzilsin. O‘quvchilar gapni qatorga qo‘yib (yozadilar) chiqadilar.

O'qituvchi: Endi, Gavhar va Maftuna, o‘zingizni tartib bilan ayting.

Gavhar: Ot.

Maftuna: Kishnayapti.

O'qituvchi: Gap hosil bo‘ldimi?

O'quvchilar: Ha.

O'qituvchi: Ushbu gapda nechta so‘z bor?

O'quvchilar: Ikkita.

O'qituvchi: Hozir mening yonimga Shuhrat , Gulsum, Salima chiqishadi. Ular so‘zlar bo‘lishadi. Biz nechta so‘zdan iborat bo‘lgan gap tuzishimiz kerak ekan?

O'quvchilar: Uchta so‘zdan.

O'qituvchi: To‘g‘ri. Uch so‘zdan iborat bo‘lgan gap tuzing.

O'quvchilar: Bog‘da olma pishdi.

O'qituvchi: Shuhrat qaysi so‘z bo‘ladi?

O'quvchilar: “Bog‘da”.

O'qituvchi: Gulsum-chi?

O'quvchilar: “Olma”, Salima esa “pishdi” so‘zi bo‘ladi.

O'qituvchi: Shuhrat, Gulsum, Salima tartib bilan turmasdan, har joyda turing. O‘quvchilar, bu gapni “O‘qish” mumkinmi?

O'quvchilar: Yo‘q.

O'qituvchi: To‘g‘ri, hozir bu gap emas, balki so‘zlar to‘plami. Gapda so‘zlar ketma-ket, tartib bilan turishadi, shundagina gap hamma uchun tushunarli bo‘ladi. Shuhrat, Gulsum, Salima – bizning so‘zlarimiz – ular to‘g‘ri turishlari kerak. Qani, Gavhar, sen chiqib, bizning “So‘zlarimizdan” hammamiz o‘ylab topgan gapni tuz-chi?

O'qituvchi: Endi Shuhrat, Gulsum, Salima qaysi so‘z ekanligini tartib bilan ayting.

Shuhrat: Bog‘da

Gulsum: Olma.

Salima: Pishdi.

O'qituvchi: Endi gap hammaga tushunarli bo‘ldimi?

O'quvchilar: Ha.





O'qituvchi: Nima uchun?

O'quvchilar: Chunki, so'zlar ketma-ket turishibdi.

O'quvchilar "jonli" so'zlar yordamida 2 - 3 so'zdan iborat gap tuzishadi.

"So'zni top" ta'limiy o'yini.

Bu o'yindan maqsad o'quvchilarning so'z to'grisidagi bilimlarini oshirish, 2 -3 so'zdan iborat gap tuzish, gapdagi so'zlar o'rnini aniqlash malakalarini mustahkamlashdan iborat. O'yinni taxminan quyidagicha tashkil etish mumkin:

O'qituvchi: Hozir biz so'zlarni topamiz. Men bu so'zlarni "Telegraf" orqali uzataman, uni topib, u qanday so'z ekanligini aytasizlar (o'qituvchi stolni bolg'a bilan ikki marta taqillatadi.)

O'qituvchi: Shuhrat, men "Telegraf" orqali nechta so'z uzatdim?

Shuhrat: Ikkita so'z.

O'qituvchi: Bu qaysi so'zlar?

Shuhrat: Biz o'tiribmiz.

O'qituvchi: To'g'ri, yasha. Hozir gapingni takrorla va gapingda nechta so'z bo'lsa, shuncha chapak chal.

O'qituvchi: Men yana "Telegraf" orqali so'z uzataman (bolg'acha bilan stolni taqillatadi).

Behruz: Qor yog'yapti, shamol esyapti, yomg'ir yog'yapti.

O'qituvchi: Behruz yaxshi gap o'ylab topdi. Hozir Behruz aytgan gapini yana bir marta tahlil qilib takrorlaydi, sizlar esa o'quvchilar uning gapida nechta so'z bo'lsa, shuncha chapak chalasiz.

O'quvchilar o'qituvchining topshirig'ini bajaradilar.

O'qituvchi: Endi yana "Telegraf" orqali uzatiladigan so'zlarni eshiting. Behzod, qani o'ylab top-chi, men qaysi so'zni uzatdim?

Behzod: Biz shug'ullanyapmiz.

O'qituvchi: Maftuna, Behzod to'g'ri topdimi? Gapda nechta so'z borligini ayt? Qaysi so'z ikkinchi, qaysi so'z birinchi? Endi Behruz "Telegrafchi" bo'ladi. U shoshilmasdan, o'quvchilarga eshitarli qilib, bolg'acha bilan stolni taqillatadi. Behruz "Telegraf" orqali so'zlarni uzatadi va shu tariqa o'yin davom etadi. Agar o'quvchilar qiynalishsa, o'qituvchi ularga yordam beradi, ziyrak, uquvli o'quvchilarni namuna qilib ko'rsatadi.

Darstning oxirida o'quvchilar bilan birgalikda darsga yakun yasaladi. Bunday ta'limiy o'yinlar o'quvchilarda so'z va gap haqidagi dastlabki bilimlarning shakllanishida juda yaxshi natija beradi, ularning og'zaki nutqi rivojlanadi.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NOTIQLIK
QOBILIYATLARINI RIVOJANTIRISHGA QARATILGAN SHE'RLAR
TO'PLAMI**

Ushbu she'rlar orqali biz kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining adabiyotga , kitob o'qishga bo'lgan qiziqshlarini orttiribgina qolmasdan, "Mushoira", "Bahr-u bayt" adabiy jarayonlariga ham tayyorlab boramiz. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari sh'erning mavzusiga va hajmiga, o'quvchining yodlay olish qobiliyatiga qarab, bu she'rlardan savod o'rgatish jarayonlarida, savodxonlik bayramlarida foydalanishlari mumkin.

#A

*Atofigimda yaxshi odamlar
Aylanadi har bir sutkada.
Atirguldek biram yoqimli
Ulardan hech bo'lmaysiz zada.*

*Ahyon ahyon uchrab turadi
Arg'imchoqdek "ajoyiblari".
Yurak ezgulik-chun uradi
Yaxshilar-la yaxshilik sari!*

*-Akamga qarang, oyi
Bo'yi nimaga baland?!
Yoki ular mendan ham
Ko'proq yeganlarmi qand?
-Oppoq qizim, oy qizim
Sergap, sersavol qizim.
Qand yeyishda emas gap,
Sendan katta-da Azim.
Sendan oldin tug'ilgan
"Aka" deysan shuning-chun.
Bo'yi ham baland shunga
Balanddir aqli, kuchi..*

*Alla ayting onajon,
Aritsin u g'amlarni.
Ajoyib hislar bilan
Eslay arzir damlarni.*

*Allangizdan taralar
Anvoyi yoqimli sas*

*Butun qalbga aylanay
Alla eshitib birpas.*

#B

#Izhor

*Bag‘ringda gul, maysalar,
Chiroyingga husndir.
Chempionlar, zukkolar
Toleingga ustundir.*

*Baxtli, hur, to‘kis hayot
Yuksalish dargohisan
Ona O‘zbekistonim,
Qalxim qiblagohisan!*

#B (1-qism)

*Bachkana qiliq qilma!
Beodoblik-bu yomon.
Qachon qarama, har gal
Eshitaman men dashnom.*

*Aldasam, aldabmanda
Shu ham yomon qiliqmi?
Mening gapim "bemaza"
Xo'sh sizniki tiniqmi?!*

*Loydan yasadim "kulcha"
Keyin yuvmabman qo'lim
Hech nima bo'lmadi-ku,
Kelib qolmadi o'lim?!..*

#D

D (2-qism)

*Daftarimning ustiga
To'kilib ketdi shirchoy
Yangi daftar tutmayman
Axir, emasmanku boy!*

*Dam olaman voh, maza!
Daraxtlarning tagida
Baliq tutmoqchi bo'ldim
Anov anhor labida.*

Daydi shamol keldiyu

*Suvga botdi oyog'im...
Uzoqdan ko'rib qoldim
Oyimning cho'p-tayog'in...*

*Daraxtlarga qarang yam-yashil,
Dovdiratar shamollarni ham.
Bas kelolmas hattoki yashin,
Bahra olar ekkan har odam..*

*Darbadar shamol-la dugona
Do'stlashib, yayrashib o'ynaydi.
Barglari qaltirab saboda
Ajoyib musiqa yayraydi.*

#E

*Esli hushli Mo'mintoy
Bugun kirdi oltiga
Eski laqabi qolib,
Ism qo'ydi itiga.*

*Eng sara va a'lozin
Tanlab ism qo'yibdi.
"Bobik" endi yo'q bo'lib,
"Qoplon" paydo bo'libdi..*

*Eh qaniydi bo'lmasa
O'sha mikroba, viruslar
Ko'cha to'lib yurardi
Mashina, avtobuslar.*

*Bog'-rog'larda o'ynardik
Men, ukam va Nozima
Shart bo'lmasdi qo'l yuvish
Ushlasang yer, loy, zina...*

#F

*Faridani ko'ring siz
Sochlari biram uzun.
Qop-qora, qalingina
O'rib yurar uzzu-kun.*

*Unga qizlar havasda
"Og'zining suvi oqar"*

*Farida-chi, atlasda
Ko'rganlar dilin yoqar.*

*Fahmli qiz Feruza
Fursatni boy bermay deb
Akasin muzqaymog'in
Qo'ydi yashirincha yeb.*

*"Foydali ish qildim-ku,
Uvol bo'lmadi axir."
O'zini oqlash uchun
Bahona to'qir bir-bir.*

*Fozil g'azabin bosib
O'qrayar singlisiga.
Bu holat qaytarilsa,
Aytarkan otasiga!*

#G

*Gullar terdim saralab
Gulzorlarni oralab
Endi Guli burmas lab
Guliga gul beraman.*

*Ruchkasini olgandim
Qayerdadir qolgandi...
So'ng qovog'in solgandi.
Guliga gul beraman.*

*Men gul terdim xo'sh, nechun?
Gul bilan go'zal ochun
Bu gul yarashish uchun
Guliga gul beraman!*

*"-Gumdon qildim bir tovuq
Ikki jo'jasini ham
Kampir mizg'iyotgan payt
Go'zal ko'rinar olam.*

*Gandiraklab go'l kuchuk
Tutolmadi zo'r bo'ldi.
Achindim biroz unga
Boshi baloga qoldi."*



#H

*Har xil fikr chiqadi
Har xil odam ongidan
Ibrat olsa bo'ladi
Hatto soat bongidan.*

*Havaskor yoshlardanmiz
Hamjihatmiz barchamiz.
Yuksak g'oyalar bilan
Eshiklarni ochamiz.*

*Hur fikrli har inson
Katta bir imkon demak.
Ezgu ishga qo'l ursak,
Biznikidir kelajak!*

Havoda kezadi xavotir..

*Onalar o'ylaydi bolasin,
Bolalar o'ylaydi lolasin.*

*Talaba xayoli darsida
Oshiqlar ma'shuqa dardida.*

*Xotinlar o'ylaydi erini
Dehqonlar dalada yerini..*

*Maysalar xayoli yomg'irda
Kamalak chiqadi ko'k-qirda..*

*Bolalar qor so'rar havodan
Bemorlar umidvor davodan...*

Havoda kezadi xavotir...

*Hayron qoldirsam deyman
Sinf dosh qiz Ra'noni.
U a'lochi, darsiga
Taqsim qilgan har onni.*

*Onamlar doim uni
Maqtangani maqtagan.*





*Hatto ikkichi Shuhrat
Uni deb she'r yodlagan.*

*O'zim "yaxshi" o'qiyman
"A'lochi" bo'lgim keldi.
Ra'nochi, hali menga
"Ofarin, balli!" deydi.*

#I

*I #teskari
Isming nima desalar,
Familiyamni aytaman.
"Zo'r o'qiyman" deymanu
So'ng, so'zimdanda qaytaman.*

*"Ochma" degan qutini
Ochib ko'rgim keladi.
Miyamda g'ij-g'ij aql
Shamol bo'lib yeladi.*

*Onam "tegma" deb ketgan
Suvni ichib qo'yibman
Dori qo'shilganini
Men qayerdan bilibman?!*

#J

*Jajjigina murg'ak jon
Mittiligini qarang.
Dunyoga kelgani on
Ko'zin ochdi u arang.*

*Juda sevindi olam
Ona unga parvona
Baxtiyor oila jam,
Muhrlandi bu sana.*

*Katta bo'lsin, zo'r bo'lsin
Duolar qilib ildam
Buvisi qo'lga olgach
Chaqaloq bo'ldi bardam!*

#K

Kulimsiraydi havo,



*Tog'dan chiqar Quyoshjon.
Shamol-la esgan navo
Mayindir, rohatijon...*

#L

*#teran_fikrlash
-"Lo'li"lar odammasmi?
Nega qo'rqamiz doim?
Odamni baland-pastga
Ajratar mi Xudoyim?!*

*-Yo'q ular odam asli...
Faqat... boshqacha odam.
Olib qochmas go'dakni
Fikrlash kerak teran.*

*Xudo hammani birdek
Inson qilib yaratgan .
Odamlarning ba'zisi
Ularni "yakka etgan".*

*-Ajrati qo'yishganmi?
-Ko'p savol berding, qizim.
O'ylamabman hech buni...
Bilib, aytaman o'zim.*

#M

*Mehnat qilgan insonning
Noni bo'ladi halol.
Uning ishi, yurishi,
Keltirmaydi hech "malol".*

*Hamma kulib boqadi,
Yuzida porlaydi baxt.
Bolalar, mehnatsevar
Bo'lishga qilaylik ahd!*

#N

*#oshiqturkisi
Nilu degan qiz bor bilsang,
Bir chirooyli, agar ko'rsang,
Boqmaydi hech holin so'rsang,
Biram erka, dono , o'zi-*

Dilfuza ustozning qizi.)

*Qadam bosar ustozlardek,
Qosh-ko'zlari kamon, yoydek.
Yuzin aytsam to'lin oydek
Onasining xuddi o'zi-
Dilfuza ustozning qizi.*

*So'z so'zlaydi dona-dona,
O'qiydi topmay "bahona"
Men uchun u yap-yagona
O'qishimga turtki o'zi-
Dilfuza ustozning qizi)*

#O

*Orzuparastligim bor,
Tasavvurim juda keng.
Oldinlari tushimda
Multfilm ko'rardim' deng.*

*Qor malika, yalmog'iz
Ertaklar jonlanardi.
Uyg'onib ketsam hamki
Xuddi rostdek bo'lardi.*

*Yoshim ulg'aygan sari,
Kattargan orzularim.
Shundanmi, ertak emas
Endi ko'rar tushlarim.*

#P

#va'da

*Pahlavon bo'larkanman
Agar ko'p yesam ovqat.
Lekin bunday bo'lishga
Menda yo'q sira toqat.*

*Xushlamayman sholg'omni,
Karam va yog'li go'shtni .
"Foydaga kon" deyishar
Ularkan inson do'sti.*

Va'da berdim onamga:

*"Pahlavon bo'lganimda
Albatta yeyman karam,
Quvvatga to'lganimda."*

#Q

*Qushlar bahsni boshlashar,
Chug'ur-chug'ur avjida.
Kurtak ochgan novdalar,
Go'zal ko'rinar juda.*

*Ana qarang, kapalak
Guldan gulga qo'nadi.
Navro'zdan berar darak
Ko'ngil zavqqa to'ladi.*

*Qoringinam yarim tunda
ochib qoldi
Oshxonaga kirib,
Bitta banan oldim.*

*"Biri kamlik qilar,
Unga sherik kerak."
Qoldirmadim. Endi esa
Boshim sarak.*

*Onam uni mehmonga deb,
"Tegma" degan.
Topdim! Uni menmas,
Tunda kam yegan!)*

#R

*Rang-barang gullar tomon
Uchib keldi kapalak
Singlim qiyqirib kulib
Tutolmay, joni halak*

*"Qo'y tegma, - dedi buvim
Yo'qsa uchib ketadi.
Bir kungina umrida
Barchani shod etadi"*

Kapalakka termilib

*Jim qarab qoldi Shirin.
“Buncha yaxshi ekansan,
Yaxshiliging ayt, sirin”*

*Buni eshitib buym
Mehr bilan jilmaydi.
“Endi go’zal kapalak
Bog’imizdan jilmaydi”*

#S

Sonet

*Seni quchoqlab bo'lmas
Qalbimdagi javohir
Muhabbatda yo'q oxir.
Tarixing bordir-o'lmas.*

*Chor-atrofga boqaman.
Yam-yashil daraxtlar-sen,
Ishqim, sevgixatlar-sen.
Sevgim-daryo, oqaman.*

*Vulqondayin hayqiriq
Portlar yurakdan: Vatan!
Ruhim sen bilan tirik!*

*Vatan bu-mening otam
Chaqaloq u, serqiliq.
Mehring-la men xotirjam...*

#T

#duo

*Tongda qildim ibodat
Ibodati bo'lsin odat.
Qo'lim ochdim duoga
Va so'radim butun Baxt!*

*Dilda qolmadi g'ubor
Bo'ldi u sof, beg'ubor
Menman onam yuragi
Otam, akam uchun-or.*

*So'radim biroz aql
Va ko'p maqtanmas bir til.*

*Istaganim so'radim
Muhimi, pok bo'lsin dil)*

*Yetib boradi duom ,
Ko'rib, biladi avom.
Hammasini eshitgan
Keragin berar, Xudom!*

*#U #ota-ona
Ular haqidagi alqovlar bisyor..
Rahmat yog'diraylik aziz boshlarga.
Najotkorlarimiz bo'lsinlar omon
Ilohim, kirsinlar ulug' yoshlarga.*

*Bu kun so'zlarimda yo'q erur hasham,
Jimjimadorlik ham ko'rinmas, biling.
Qo'limdan kelgancha qilurman xizmat,
Ki, ular shod bo'lsa, ravshandir diling!*

*#V
Varrak sayli boshlandi
Demak bahor kelibdi!
Qushlarchi bahs bog'lashib
Shamoldayin yelibdi.*

*Qir, adir, dalalarda
Bosh ko'tarar boychechak
Tinch va ahil yurtimga
Shodlik-omonlik kerak!*

*#X
#xaloskor
Xaloskorman maqtanay:
Suvda qolgan chumolin
Cho'kmasidan qutqardim.
Uning ham bor "uvoli"*

*#Y
Yig'la dilim, yig'lugin,
Tilim-tilim bo'lib ket.
Gunohlaring ko'p, tag'in
Bo'lib boryapsan bezbet.*

Loqaydsan chor-atrofga



*Bee'tiborlik qaydan?
Bu odamlar unutgan
Yaralgan joyin-loydan.*

*Ezilib, to'yib, yig'la
G'uborlaring chiqarib
Toki yovvoyi hislar
Yo'qolsin chirib, qarib*

*Qilmishlarga tavba de
To'yib to'yib bo'zlagin
Va ... bo'ldi. Endi esa
Ezgulikdan so'zlagin!*

#Z

*#Odobli ukamga
Zehningga qoyil, balli
Yashavorgin, azamat.
Yuzingda kular go'yo
Olam-olam baxt-omad.*


*Keksalarga hurmating,
Odoblaring yarashgan.
Bilsang senga odamlar
Havas bilan qarashgan.*

*Vatanningga, yurtingga
Sodiq o'g'lon bo'lib o's.
Xiyonatkor, yurtfurush
Yomonlarning yo'lin to's!*

#O`

*O'ylab o'ylab xayolimga fikr keldi,
Juda buyuk ixtirochi bolsammikan
Ochirg'ichning xo'p zo'rini yaratvolib
Odamlarning qalblariga kirsam ekan..
Ana shunda bo'lar juda ajoyib ish,
Kimda qanday orzu, istak yoki aksi.
Uchrab qolsa agar menga kir" niyatlar
Hasad g'araz illatlarning bo'lsa raqsi,
Ikkilanmay, hech o'ylanmay o'chirardim.
Toki dilda qolmasin hech yomon illat
Dillariga ezgu niyat ko'chirardim*




*Shunda eng zo'r bo'lar edi bizning millat.
O'ylab qo'ydim, u o'chirg'ich miqdorini
O'chirganda hech tugamas bo'ladi u.
Menda bitta , mayli yana bitta..
Qo'shimchasi onamgadir, sofdil zot-ku!
Mabodo gar menda ham kir niyat ko'rsa,
Ayamasdan o'chirarlar, qolmasin hech.
Menikidek ixtironi uchratmaysiz,
Bo'lsa ham u , mendan keyin topilgan, kech..*

#G`

*G'ir-g'ir esib shabada
Barglar raqsga tushadi
O'ynoqi va mo'rtlari
Uchmoq uchun shoshadi.*

*Qaysi biri mustahkam?
Sariq bargmi yo yashil?!
Kuz fasli, yer to'la barg
Tozalab, yaxshilik qil!*

#SH

*Sholg'om juda foydali ,
Palovga solinadi.
Undan juda ko'p , har xil
Vitamin olinadi.*

*Ko'p bolalar sholg'omning
Bilishmaydi foydasin.
Agar bilishganida
Unga o'qirdi tahsin.*

*Shirin-shirin oppoqqand
Olib berdik ukamga.
Darrovgina yeb oldi
Ukam uchun bu kamda!*

*Shirinlikxo'r Botirning
O'zi ham shirin bola.
Kuchli bir yigit bo'lsin,
Yigitlar ichra sara!*



#CH

#Doirachi

*Chalishni bilsang chalda
Tum-tum urma doirani.
Bunday chalmasliging-chun
Doirachi bo'lg'in, qani.*

*Chalolmayman o'xshatib'
Tum-tum qiladi faqat.
Shogirdlikka bersangiz,
Bir chalay, oling rohat!*

#Ng

*"Kelinglar bolajonlar
Ng ga so'zlar topamiz!"
"-dengiz, singil va ko'ngil"
"Yetarli" der opamiz.*

*"Ng harfi murakkab harf
U bilan boshlanmas so'z.
Agar qo'lingdan kelsa
O'zing ngli so'zlar tuz!"*

#' #tutuq_belgi

*Men qatnashgan so'zlarni
Biroz to'xtab o'qiysiz.
Is'hoq ni demang Ishoq
Yo'qsa yolg'on to'qiysiz.*

*A'lo deng ishingizni,
O'qish, turmushingizni.
Ma'noli ayting doim
Aytar har so'zingizni!*

She'rlar muallifi: Mohidil G'ofurova







MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI O'STIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI	5
1.1. Kompetensiyaviy yondashuv – ta'lim sifat va samarasining omili.....	5
1.2. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishning mazmuni va vazifalari	8
1.3. Nutq – o'quvchilar tafakkurini o'stirishdagi muhim vosita.....	11
1.4. Savod o'rgatish davrida yangi pedagogik texnologiyalar foydalanish	15
2-BOB. SAVOD O'RGATISH DAVRIDA SO'Z VA GAP USTIDA ISHLASH - ASOSIY ISH TURI SIFATIDA	20
2.1. Savod o'rgatish jarayoni.....	20
2.2. Tovush ustida ishlash jarayoni davomida o'quvchilar nutqini rivojlantirish.....	23
2.3. Savod o'rgatish davrida so'z va gap ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda suhbat usulidan foydalanish.....	25
2.4. So'z, gap va matnlarni o'qishga o'rgatish orqali o'quvchilarning nutqini rivojlantirish.....	30
2.5. Yozuvga o'rgatish jarayonida o'quvchilar nutqini rivojlantirish.....	34
2.6. So'z va gap ustida ishlashda “Kim oxirini o'ylab topadi?”, “Pochtalyon xat olib keldi”, “Jonli so'zlar” ta'limiy o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilar nutqini rivojlantirish.....	37
2.7. So'z va gap ustida ishlashda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari davrida o'quvchilar nutqini rivojlantirish.....	42
2.8. “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” mavzusidagi bayram ssenariysi.....	45
2.9. O'qish va yozuvga o'rgatish yuzasidan dars ishlanmasi.....	49
Xulosa	51
Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar nutqini rivojlantirish	53
Foydalanilgan adabiyotlar	73



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Me'oriy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni.–T., 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlarni to'g'risida" PQ-4884-sonli qarori 6.11.2020y
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 577-son 12.07.2019
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim Vazirining 41-son buyrug'i "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi nizom.22.02.2021
5. O'zbekiston Respublikasining " Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni //Barkamol-avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori .- T. "Sharq nashriyot matbaa-konserni. 23.09. 2020. O'RQ-637-son.
6. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent-O'zbekiston" -2016. 13-bet.
7. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. – Toshkent .2020.

II ASOSIY ADABIYOTLAR.

1. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. Toshkent. 2000,N10.
2. Boshlang'ich ta'lim. "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali, – Toshkent: "Sharq",1999. 7-son.
3. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi". 2009, 17-bet
4. Q.Abdullaeva va boshqalar. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi". 1996, 4, 27- sahifalar.
5. R.A.Yo'ldoshev, Z.Mirjalolova. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. Toshkent. 2018
6. Sul'tonov Sh.E. Pedagog-kadr kompetensiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash sifatida. www.oriens.uz
7. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2003.18-bet
8. G'afforova T.Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. Toshkent. –Tafakkur, 2011. 31-bet
9. Shodieva Q. Nutq o'stirish uslubiyati. –Toshkent: "O'qituvchi", 2002.

III. INTERNET SAYTLARI.

1. www.lex.uz
2. www.oriens.uz
3. www.ziyo.net.
4. <http://tdpu.uz>
5. www.edu.uz.

Всероссийский информационно-образовательный
портал «Магистр»

16+
Методическое пособие

MONIDIL G'OFUROVA
MONICHEXRA USMONOVA

**BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARI NUTQINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI
(SAVOD O'RGATISH DAVRIDA)**

Председатель оргкомитета: Ирина Фёдоровна К.

Email: metodmagistr@mail.ru

Тел. редакции: +7 923 606 2950

Главный редактор: Вознов Александр Сергеевич

Email редакции: magistr-centr@magistr-r.ru

Информационно – образовательный ресурс

"Магистр": Елена Владимировна В.

Email: magistr-centr@mail.ru

Сетевое издание «Магистр»
СМИ Серия ЭЛ No ФС 77 – 75609

от 19.04.2019 г.

(РОСКОНАДЗОР, г. Москва)

ИНН 4205277233

ОГРН 1134205025349